



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON
DAVLAT UNIVERSITETI
OLMON TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

5141400 xorijiy tillar va adabiyoti (olmon tili) ta'lim yo'nalishi
403- guruh talabasi Mo'minova Mo'tabarning bakalavr darajasini olish uchun
***Katarina Momsenning Goete va Islom risolasining M.Umarxo'jayev,
I.Jabborov tomonidan 2012yil o'zbek tiliga bevosita qilingan tarjimasi
va diniy atamalarning bir tildan ikkinchi tilga tarjimasi masalasi***
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy raxbar: Proff. UMARXO'JAYEV M.E.

Andijon - 2014 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob	
I.1.Yurtimizda ta`lim va tarbiyaga berilayotgan e`tibor.....	5
I.2.Ta`lim sohasida chet tilining o`rni.....	6
I.3.Goethe va islom risolasining ilmiy va amaliy ahamiyati.....	7
II bob	
II.1.Adabiyot millat ko`zgusi.....	8
II.2.Xikmatga aylangan hayot yo`li.....	16
II.3.G`arbni hechqachon Sharqdan ajratib bo`lmaydi.....	38
II.4.Goethe va islom risolasining tarjimasi haqida.	42
Xulosa.....	58
Foydalanilgan adabiyotlar	60
Katarina Momsenning Goethe va islom risolasining o`zbek tiliga qilingan bevosita tarjimasi tahlili va diniy atamalarning bir tildan ikkinchi tilga tarjimasi masalasi	

Reja

Kirish

Mavzuning dolzarbligi

Mavzuning o`rganilish darajasi
BMIning maqsad va vazifalari
BMIning amaliy ahamiyati
BMIning tadqiqot metodlari
BMIning metodologik asosi
BMIning ilmiy yangiligi
BMIning strukturasi
BMIning amaliyotda sinab ko`rilganligi

I. Bob

I.1. Yurtimizda ta`lim va tarbiyaga berilayotgan e`tibor.

I.2. Ta`lim sohasida chet tilining o`rni

I.3. Goethe va islom risolasiining ilmiy va amaliy ahamiyati.

II. Bob

II.1. Adabiyot millat ko`zgusi.

II.2. Xikmatga aylangan hayot yo`li.

II.3. G`arbni hech qachon Sharqdan ajratib bo`lmaydi.

III.4. Goethe va islom risolasiining tarjimasi haqida.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bizning bugungi kundagi bosh va asosiy maqsadlarimizdan biri bu milliy ma`naviyatimizni yuksaltirishdir. Bu borada biz milliy ma`naviyatni shakllantiradigan va unga ta`sir etadigan omillarni bilishimiz zarurdir.

Ma`naviyatni shakllantirishga bevosita ta`sir qiladigan muhim hayotiy omillardan biri – bu ta`lim va tarbiya tizimidir. Zero, yurtboshimiz aytganlaridek ta`lim va tarbiyani bir - biridan ajratib bo`lmaydi. Bu sharqona hayot falsafasidir.

Ma`lumki ota - bobolarimiz ilm-u ma`rifat, ta`lim tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy poydevori deb bilganlar. Nafaqat o`tgan asrlar uchun balki, bugungi kunda ham muhim va dolzarb ahamiyatga egadir.

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq barcha sohalarda bo`lgani kabi, ta`lim va tarbiya jarayonida ham tub islohotlar o`tkazila boshlandi. Fikrimizning amaliy isboti sifatida birgina Kadrlar tayyorlash milliy dasturini

ishlab chiqilgani fikrimizning yorqin dalilidir. Ushbu dasturning asosiy maqsadi “tajribali, yuksak bilimga ega, jahon andozalariga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlashdan iboratdir”¹.

Darhaqiqat, mustaqilik davrida barpo etilgan, barcha shart- sharoitlarga ega boʻlgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari oliy oʻquv yurtlarida taxsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm maʼrifat sirlarini oʻrganayotgan, ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan minglab oʻquvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan oʻz isteʼdodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida ana shunday orzu-intilishlarimiz bugunning oʻzida oʻz hosilini berayotganligining guvohi boʻlmoqdamiz.

Bunday bilimli kadrlar yetishib chiqishi uchun taʼlimni boshlangʻich nuqtasiga jiddiy eʼtibor berishimiz zarur. Shu maʼnoda aytib oʻtish kerakki Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirish jarayonida maktab taʼlimi, ayniqsa, umum taʼlim maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlashga

¹ Oʻzbekiston Respublikasining „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ 1997

eʼtiborni kuchaytirish biz uchun kun tartibidagi eng muhim va jiddiy masalaga aylandi. Bu oʻrinda shuni aytib oʻtish kerakki, taʼlimning uzluksizligini taʼminlash uni bosqichma-bosqich olib borish moddiy- texnik bazani mustahkamlash va taʼlim jarayonini rivojlantirishga katta eʼtibor berilmoqda.

Muhtasar qilib aytganda keyingi yillarda taʼlim- tarbiya sohasida amalga oshirilgan keng koʻlamli amaliy ishlar mustaqilligimizni mustahkamlashda, hech kimdan kam boʻlmaydigan hayot barpo etishda, milliy maʼnaviy yuksalish yoʻlida mustahkam poydevor boʻldi desak hechqanday mubolagʻa boʻlmaydi.

Yoshlar kamoloti, manfaati, yorugʻ iqboli, baxtu saodati- “Oʻzbekiston – kelajagi buyuk davlat” ni barpo etishdek ulugʻvor maqsadimizning mazmun mohiyatini tashkil etadi. Chunki davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, “yoshlar ertangi kunimizning ishonchi va tayanchidir”.

Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimizda yoshlarga eʼtibor davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. Buning natijasi sifatida oʻtgan yillarga nazar tashlasak, deyarli har bir yilda yoshlar istiqboli, jismoniy salomatligi va maʼnaviy kamoloti yoʻlida ulkan ezgu ishlar amalga oshirilganiga guvoh boʻlamiz.

Bugun yoshlarimiz hech kimdan kam emas. Ular xalqimiz, prezidentimiz, davlatimiz ardogʻida.

Yurtimizda turli sohalarda yuksak muvaffaqiyatlarni qoʻlga kiritayotganlar safi tobora kengayib bormoqda. Bu esa, tabiiyki, ularning istiqbolini oʻylab olib borilayotgan ezgu islohotlar

samarasidir. Binobarin, istiqlol davrida har bir yilga o'ziga xos nom berish ananaga aylangan. Buning zahirida ham yoshlar taqdiriga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik mujassam.

Ezgulikka yo'g'rilgan bunday ishlarning mahsuli va natijasi yoshlarimiz qo'lga kiritayotgan yutuqlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ta'lim sohasidagi bu kabi o'zgarishlar va yaratilayotgan imkoniyatlar o'z salohiyatimizni namoyon etish va turli yutuqlarga erishishimizda qanot bag'ishlamoqda. Bunday sharoitlardan oqilona foydalanish har bir yoshning muqaddas burchidir.

Bugungi kunda chet tilining o'rnini va ahamiyati beqiyosdir. Nafaqat ta'lim balki, hayotning boshqa jabhalarida ham muhim o'rin tutadi. Hozirda chet tilini bilish davr talabidir.

2012-yilning 16-17-fevral kunlari respublikamiz poytaxti Toshkentda bo'lib o'tgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro anjumanda qayd etilgan yurtboshimizning nutqi yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol dalilidir. "Biz ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim, professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet el mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilishlari, bugungi dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea xodisalar, yangiliklar va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun katta ahamiyat bermoqdamiz".

Ushbu so'zlarni amaliy natijasi sifatida 2012-yilning 10- dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi¹ qarori bu masalaning davlat siyosati darajasigako'tarilganining yorqin namunasidir. Ushbu qarordan kelib chiqib shuni aytib o'tish kerakki xorijiy til ta'limi tizimi oldida juda katta mas'uliyat turibdi. Zero.xorijiy tillardan xech bo'lmaganda ikkitasini egallamay turib, mustaqil mamlakatimiz uchun kerakli mutaxassis bo'lib yetishish mumkin emasligi ochiq-ravshan ayon bo'lib qoldi.

Shuning uchun ham 2013-2014 o'quv yilidan boshlab respublikamizning barcha hududlaridachet tillarni o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'qitishni joriy etish, til ta'limi uzviyligini ta'minlash ko'zda tutilgan. Undan tashqari 2015-2016 o'quv yilidan boshlab barcha oily ta'lim muassasalariga kirish testlari blokiga xorijiy tilni kiritish taklifida ham chet tilini davomli ravishda o'rgatish maqsadi yaqqol namoyon bo'lib turibdi.

¹ I.A.Karimov „Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi qarori, 2012,10dekabr

Qarordan ko'zlangan asosiy maqsad shundan iboratki kelajak avlodni hech bir sohada qoqilmasdan chuqur bilimga ega bo'lishlarini ta'minlash, butun dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea hodisalardan doimo boxabar bo'lishlarini ta'minlashdan iboratdir.

Zero, til bilish el bilishga yo'l ochadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. "Goethe va islom" va shu kabi mavzularda bir qancha ilmiy izlanishlar, maqolalar yozilgan. Lekin Goethe shaxsining ochilmagan qirralari to'g'risida batafsilroq ma'lumotlar berilmagan. Yangi qirralari yoritib berilmagan.

Mavzuning yangiligi. Mavzu yuzasidan olib borilgan izlanishlar davomida tarjimaning o'ziga xos bo'lgan tomonlari haqida so'z boradi.

Ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi- Goethedek dahoning nafaqat ilm balki diniy sohadagi qarashlari bilan kengroq tanishish va uning naqadar o'zga dinlarga nisbatan bag'ri keng ekanligini o'rganishdan iborat.

Ish oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi.

Adabiyotning nechog'lik qudratga ega ekanligini o'rganish

Goethening xikmatga aylangan hayot yo'li

G'arbni hech qachon Sharqdan ajratib bo'lmaydi

Tarjima haqida va unga berilgan e'tiroflar

Ishning amaliy ahamiyati.

Jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda jahon xalqlarining o'zaro do'stona hamkorlik va e'tiqoddagi bag'ri kenglik dolzarb masaladir. Shu nuqtai nazardan Islomga munosabatni bilish va Islom ma'rifatini anglash uni ezgulik dini deb bilishda, ishonishda Goethe ning xizmatlari qay darajada ekanligini o'rganish.

Mavzuning obyekt va predmeti. Mavzuning obyekt sifatida tarjima va tarjima jarayonini tahlil qilish. Undagi yutuq va kamchiliklarni o'rganib chiqish. Mavzuning predmeti sifatida esa Katarina Mommsenning "Goethe va islom" risolasining tarjimasiasos qilib olindi.

Tadqiqot metodi. Ilmiy tadqiqotga dinga oid muqaddas kitoblar va tarjima haqidagi kitoblar asos qilib olindi. Undan tashqari shoir Goethening hayoti va ijodini yoritib beruvchi asarlar asosida yoritildi. Shu bilan bir qatorda nazariy manbaa bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mavzuni yoritishda qiyoslash metodlaridan keng foydalanildi.

Ishning metodologik asosi. "Ta'lim to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston respublikasi Prezidentining bir qancha asarlari, ta'lim sohasini isloh qilish borasidagi turli qaror va farmonlari, tashkil qiladi.

Ishning amaliyotga tadbiiq etilganligi. Mavzu yuzasidan izlanishlar olib borish jarayonida ushbu risola Andijon Davlat Universiteti Xorijiy tillar fakulteti, Nemis tili

yo`nalishida taxsil oluvchi bir qancha yosh tarjimonlar tomonidan tarjima qilinib, amalda sinab ko`rildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi uch bo`lim va ikki bobdan hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Ya`ni kirish, asosiy qism va xulosadan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, mavzuning o`rganilish darajasi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi, ahamiyati va amaliyotda sinalganligiga alohida to`xtalib o`tiladi.

Asosiy qismda esa berilgan mavzu keng yoritiladi. Asarning asl nushasi hamda tarjimasi o`rtasidagi farqlar va o`xshash jihatlar tahlil qilinadi. Tarjimada erishilgan yutuqlar hamda yo`l qo`yilgan kamchiliklar haqida fikr mulohazalar yuritiladi. Tarjimadan ko`zlangan maqsad va unga erishish uchun qanday usullardan foydalanilganligi yoritib beriladi.

Xulosa qismida ushbu mavzu yuzasidan turli fikr va mulohazalar, qarashlar bayon qilinadi.

Mavzu bayonining nihoyasida shu mavzu yuzasidan olib borilgan izlanishlar davomida qanday materiallardan foydalanilganligi ya`ni adabiyotlar ro`yxatila qilinadi.

II.1 Adabiyot millat ko`zgusi.

Adabiyot haqida so`z yuritar ekanmiz shu o`rinda buyuk bobomiz Abdulhamid Cho`lponning quyidagi so`zlarini keltirish o`rinlidir.

„Hech to`xtamasdan harakat qilib turg`on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo`lsa, maishat yo`lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa-millat yashar...

Adabiyot chin ma`nosi ila o`lgan so`ngan qaralgan, o`chgan, yarador ko`ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg`on o`tkir yurak kirlarini yuvadurg`on toza ma`rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug` va ravshan qiladurg`on, chang va tuprog`lar to`lgan ko`zlarimizni artib tozalaydurg`on buloq suvi bo`lg`onlikdan bizga g`oyat kerakdur.

Adabiyot o`quyluk. Adiblar yetishdirayluk, adabiyot kechalari yasayluk. Ruh, his, tuyg`u fikr, ong va o`y olayluk, bilayluk``¹.

Ilohiy kitoblarda aytilishicha, **So`z** dunyodagi barcha narsalarning asosidir. Rivoyat qiladilarki, Tangri o`zining qudrati va jamoliga ko`zgu bo`ladigan yaratiq barpo etishni istaydi-yu, kunlarning birida: „Yaral!``(arabchasi „Kun!``) –degan so`zni aytadi. Yaratgan amrining ifodasi ana shu birgina **So`z**ning kuchi bilan o`n sakkiz ming olam va undagi jamiki narsalar dunyoga keldi. Demak so`z olam va undagi narsalardan oldin paydo bo`lgan ekan. So`zning

cheksiz qudratini shundan ham bilsa bo`ladi. Har qanday inson hayotida juda katta ahamiyat kasb etadigan badiiy adabiyot ana shunday qudratga ega so`z bilan ish ko`radigan san`at turidir. Shuning uchun ham badiiy adabiyot –**so`z san`ati** deb yuritiladi.

Badiiy adabiyot san`atning murakkab va serqirra turi, insonda yuksak ma`naviyat shakllantirishning eng ta`sirchan vositasidir. Insondagi ismsiz tuyg`ular nozik kechinmalar, ko`z bilan ko`rib, quloq bilan eshitib, qo`l bilan ushlab, til bilan totinib, burun bilan hidlab bo`lmaydigan ruhiy holat jilvalarini faqat so`z yordamida ifoda etish mumkin.

¹ Adabiyot 6-sinf 22-bet

Badiiy adabiyot san`atning boshqa turlaridan asosiy ish quroli ham, materialli ham So`z ekanligi bilan ajralib turadi.

San`atning adabiyotdan boshqa har qanday turi inson hayoti yoki hissiyotining faqat birgina holatini ifoda eta oladi. Badiiy adabiyot esa tasvirlanayotgan narsa yoki kimsaning hozirgi holatini qanchalik ishonarli aks ettirsa, uning o`tmishini ham, kelajagini ham shunchalik ta`sirchan va jonli tasvirlay oladi. Demak, odamda yuksak ma`naviy fazilatlar shakllantirishda badiiy adabiyotning imkoniyati benihoya katta.

Badiiy adabiyotda aks etirilgan hayot serqirra ekanidan tashqari, kishiga qattiq ta`sir ham qiladi. Misol uchun biror qiziqarli asar o`qiganimizni eslasak, undagi obrazlarning bizga to`g`ridan- to`g`ri dahli yo`qligini va voqealar hozir ro`y bermayotganligini yaxshi bilsakda, asardan bosh ko`tara olmaymiz. Kitob qahramonlariga qo`shilib quvonamiz yoki kuyunamiz. Ba`zan hatto yig`laymiz ham. Nega shunday? Badiiy asarlarning kishida his- tuyg`u uyg`otishi sababi shundaki, har qanday badiiy asar, avvalo kechilma, hissiyot, munosabatning mahsuli. Adabiyotdan boshqa o`quv fanlarida hissiyot ko`zga tashlanib turmaydi. Badiiy adabiyotda asosan tuyg`ular bilan ish ko`riladi. Hamish ta`sirlar og`ushida, munosabatlar va kechimalar qurshovida bo`liniladi. Chunki yozuvchi vos kechinma va hissiyotlarini kitobxondan berkitmaydi, aksincha, ochiq ifoda etiladi. Mana shuning uchun ham badiiy asar qahramonlari xuddi tirk odamlardek, go`yo yaqin kishilarday odamni bezovta qiladi, o`ylantiradi. Ijodkor hamisha tuyg`ular og`ushida bo`ladi. Chinakam ijod namunalari ijodkorlarning hissiyotlari ifodasidir. Ba`zilar badiiy asarlarni ta`sirchanligiga sabab sifatida uni qiziqarli voqealarning tasvirlanganligi deb o`ylashadi. Holbuki, qiziqarli voqealarning o`zi hali asarning badiiyligini to`la ta`minlay olmaydi. Axir, xar bir odamning boshidan qanchadan-qancha qiziq voqealar, sarguzashtlar o`tgan. Lekin ular qog`ozga tushirilsa, badiiy asar bo`lib qolmaydi. Ko`rinadiki, badiiy adabiyotni ilmiy adabiyotdan farqlab turadigan narsa uning qiziq voqealar ta`sviriga bag`ishlanganida emas, balki uning obrazli ekanligidadir. Badiiy obraz esa,

yuqoridagi fikrlarga asoslanadigan bo'lsak, qisqagina qilib **ijodkorning fikr, tuyg'u, hissiyot va kechinmalari singdirilgan manzara tasviri badiiy obrazdir** deyish mumkin.

Tasvirning obrazlilikini ta'minlash uchun so'zning oddiy odamlar nazaridan yashirin imkoniyatlaridan foydalana bilish lozim. Chunonchi inson hayoti ham og'ochning umriga o'xshaydi: avval nozik ko'chat bo'ladi, keyin barq urib ko'karadi, so'ng qiyg'os kiradi, bir payt daraxt barglari to'kiladi va vaqti kelib qurib qoladi yo'sinidagi fikr shoir tomonidan:

Umr deganlari o'tmakda shoshqin,

Tilla barglarini elab yo'limga

tarzida ifodalanadi. Umrning o'tkinchiligi haqida biz avval bildirgan fikrlar to'g'ri bo'lsa-da, o'ziga hoslik yo'q. Shu bois ular esda qolsa-da, eshituvchiga kuchli tasir ko'rsatmaydi. She'riy parchada esa, yorqin, o'ziga xos obrazli ifodalar borki, bular asarning ta'sirchanligini ta'minlagan.

Odamda ko'ngil bo'lganligi uchun ham u hamisha go'zallikka intilib yashaydi, Mutafakkirlarning: „Dunyoni go'zallik qutqaradi“, -degan gapi aslida, olamni pokiza ko'ngil saqlab qoladi deganidir. Shuning uchun ham san'at odamlar hayotida muhim o'rin tutadi.

Adabiyot so'zi arabcha „adab“ so'zining ko'plik shakli bo'lib, quydagi ma'nolarni ifodalaydi

1. Fanning va amaliyotning biror soxasidagi yutuqlarni umumlashtiruvchi asarlar yig'indisi (texnika adabiyoti, siyosiy adabiyot, singari).

2. San'atning bir turi. Voqelikni til yordami bilan yaratilgan obrazlar orqali aks ettiradi. Adabiyot ilk taraqqiyot davrida og'zaki holda bo'lgan, yozuv paydo bo'lgandan so'ng yozma shaklga o'tgan. So'z san'ati bo'lmish adbiyot til orqali insonning his va tuyg'ularini keng va chuqur aks ettirish imkoniyatiga ega. Shuning uchun ham san'atning eng ommaviy turidir.

G.Belinskiy badiiy adabiyotning yetakchi uch turini ajratib ko'rsatadi. Bular: epos, lirika, drama, **Epos** voqelikning o'zini aks ettiradi. **Lirika** insonning voqelikdan olgan taassurotlarini tasvirlaydi. **Drama** hayotni harakatda ifodalab, muallif nutqisiz aks ettiradi. Bulardan tashqari, liro-epik tur hamda satira va yumor bor. Liro-epik turga poema, ballada, doston, masal kabi janrlar kiradi. Bu xil asarlarda ham lirik, ham epik xususiyatlar bo'ladi. Satira va yumor esa voqelikdagi salbiy jihat va hodisalarni kulgi uyg'otadigan qilib aks ettiradi. Adabiyotda voqelikni aks ettirish prinsipiga ko'ra adibning ijodiy metodi paydo bo'ladi. Agar san'atkor voqelikdagi tipik hodisalarni umumlashtirgan holda haqqoniy aks ettirsa, buni realistik adabiyot deymiz. Yozuvchi voqelikning o'zini emas, balki u haqdagi o'z orzu umidlarini ifoda etsa, u romantik tasvir bo'ladi. Adabiyotning badiiylik o'lchovi asarning g'oyaviy- badiiy jihatdan mukammal bo'lishini taqozo qiladi. Bu hol asar mavzuining aktualligi, ifoda etadigan

g'oyasining to'g'riligi, tasvir haqiqatining chuqurligi, badiiy shakl komponentlarining mukammalligidan yuzaga keladi. Har bir adabiyot milliydir. Shu ma'noda adabiyot har bir xalq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Adabiyotning milliyligi uning mazmunida ham, shaklida ham namoyon bo'ladi. Xalqning tarixiy hayotidagi va psixikasidagi xususiyatlar adabiyotning milliy xususiyatlarining mazmunini tayin etadi va o'ziga xos milliy shakllar maydonga keltiradi. Milliy shaklning maydonga kelishida adabiyot tomonidan uzoq davrlar mobaynida yig'ilgan tajriba va an'ananing ham ro'li katta. Adabiyot o'z navbatida jamiyatning mustahkamlanishida qudratli qurol ro'lini o'ynaydi. Gorkiy adabiyotni insonshunoslik deb atagan. Adabiyotning tasvir ob'ekti ijtimoiy voqelik, bosh tasvir predmeti esa, insondir. Adabiyotda insonning ijtimoiy mohiyati umumlashtirilgan holda ifoda etiladi. Shuning uchun ham adabiyotning maqsadi ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy kuchning mohiyatini to'la ifodalagan va ayni vaqtda keskin individuallashtirgan badiiy obrazlar yaratmoqdir. Yaratilgan bunday obrazlarning eng mukammali „tip“ deb ataladi. Misol uchun Navoiy asarlaridagi Farhod, Shirin, Majnun, Layli, obrazlari, Shekspir asarlaridagi Otello va Xamlet, Qodiriy asarlaridagi Otabek va Kumush tip darajasiga ko'tarilgan obrazlar misolidir. Adabiyot voqelikni aks ettirar ekan, unga go'zallik nuqtai nazaridan yondashadi. Binobarin, asarning predmetini tanlash ham g'oyat muhim ijodiy jarayondir. Chunonchi, asarning ta'sirli chiqishi unga asos qilib olingan fikrning emotsionalligi, ko'tarinkiligiga ham bog'liq. Demak, adabiyot voqelikni til yordami bilan yaratilgan obrazlar orqali ma'lum bir ijtimoiy-estetik ideal nuqtai nazaridan aks ettiruvchi san'atning bir turi va shu yo'l bilan o'quvchilarga o'z ta'sirini o'tkazuvchi mafkuraning bir qismidir.

Badiiy adabiyot uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, yaratilish qonunlari, taraqqiyot yo'llari, badiiy asarning tasviriy vositalari, tarkibiy qismlari va turlari haqidagi fan. Adabiyot nazariyasi adabiyot tarixi va adabiy tanqid bilan birga adabiyotshunoslik deb atalmish butun bir fanni tashkil etadi.

Adabiyot nazariyasi juda ko'p muhim xulosalar chiqaradi: badiiy ijodning manbai xayotdur, badiiy asarning qimmatini dastavval ijtimoiy borliqni qanchalik haqqoniy tasvirlashiga qarab tayin etiladi. Bu fikr buyuk yozuvchilarning adabiy ijod haqidagi fikrlarida ham tasdiqlanadi. Masalan, M.Gorkiy adabiyotning bosh qahramoni-hayotiy haqiqat, deb hisoblaydi. Badiiy adabiyotning hayotni bilish vositasi sifatida katta ahamiyatga ega ekanligi adabiyot nazariyasining eng muhim nazariy hulosalaridan biridir. Faqat xalq hayoti bilan chambarchas aloqali adabiyotgina bizning kunlarimizda o'zining oliy vazifasini bajara oladi. Xalqchilik- haqiqiy badiiy ijodning ajralmas xususiyatidir. Adabiyotning xalqchilligi insonlarning orzu umidlarini, xayoti va kurashini xalqning yuksak ideallari bilan uzviy bog'liq holda badiiy obrazlar orqali aks ettirishni anglatadi. Adabiyot va san'atning xalqchilligi, birinchidan, badiiy asarlarda butun xalq uchun

ahamiyatli bo'lgan masalalarni o'rta qo'yish, xalq hayotining eng muhim tomonlarini qamrab olib aks ettirish, xalqning porloq orzu- umidlari va ideallarini ifodalash; Ikkinchidan, har bir voqea- hodisaga, masalaga xalq manfaatlari, nuqtai nazaridan yomdashib, ilg'or dunyoqarash va yuksak g'oya asosida tasvirlash; uchinchidan, keng xalq ommasi uchun tushinadigan bo'lgan badiiy til va uslubdan rang-barang shakl va janrlardan foydalanish kabi muhim prinsiplar bilan belgilanadi. Navoiy, Shekspir, Pushkin, Goethe, kabi buyuk yozuvchilarning asarlari ana shu prinsiplarga mosdir va shunga ko'ra to'la – to'kis mosdir.

Adabiyot tarixi – adabiyotshunoslik fanining bir qismi bo'lib, bir xalqning yoki mamlakatning tarixida so'z san'atining paydo bo'lishi, rivojini va bu tarixiy – badiiy jarayonning qonuniyatlarini o'rganadi. Adabiyot tarixi insoniyatning ilk madaniyati bilan birga tug'ilgan. Sharqda jumladan, Movarounnahrda adabiyot tarixi dastlab tazkiralar tarzida yuzaga kelgan. Ularga misol qilib, quydagi namunalarni keltirishimiz mumkin. Davlatshohning «Tazkirat ush-shuaro»si va Navoiyning «Majolis un-nafois»i kabi, shoirlar va adiblar haqida qisqacha biografik ma'lumotlar, asarlaridan parchalar berishdan iborat bo'lgan. Demak, san'atning, badiiy so'zning manbai- voqelikni aks ettiradi. Adabiyot va uning vakili- yozuvchi jamiyatdan, uning tarixiy xayotidan chetda bo'lishi mumkin emas. Shu sababli adabiyot tarixi har bir yozuvchi ijodini va butun adabiyotni o'z davrining ijtimoiy voqeligi bilan munosabatda, shu jumladan undagi ijtimoiy tafakkur rivoji bilan chambarchas aloqada tekshiradi va badiiy adabiyotning o'zini shu tarixiy voqelikning, konkret davrdagi ijtimoiy tafakkurning bir qismi va ko'rinishi sifatida tahlil etadi. Badiiy ijod va so'z san'atining o'ziga xosligiga taalluqli masalalar ham adabiyot tarixida keng o'rin oladi. Badiiy tilning boyishi, mukammallanishi, hayotga xalq tiliga yaqinlashuvi, xalq adabiy tilining shakllanishida o'ynagan ro'li: adabiy jins va turlarning paydo bo'lishi va rivoji, adabiyotda ijodiy metodlarning tug'ilishi va taraqqiyoti, adabiy oqimlar, adabiy maktablar, adabiy tashkilotlarning ro'li – bular hammasi adabiyot tarixining predmetidir. Adabiyot tarixi badiiy so'z asarlarini yaratuvchilar – yozuvchilarning ijodiga va shaxsiga oid masalalar bilan mashg'ul bo'ladi. Har bir yozuvchi o'z dunyo qarashining va estetik yutuqlarining aniq tarixiy sharoitda o'ynagan ro'liga, ijodiy mahsulotining soni va salmog'iga qarab adabiyot tarixidan o'rin oladi. Adabiyot tarixi badiiy adabiyot tarixini ijtimoiy hayotning boshqa sohalari (fan, teatr, musiqa) tarixi bilan bog'liq xolda tekshiradi, ular orasida adabiyotning tarixiy o'rnini tayin etadi. Adabiyot tarixi adabiyot nazariyasi qoidalariga suyanib ish ko'radi va o'zi adabiyot nazariyasini yangi ilmiy xulosalar bilan boyitadi.

Adabiyotshunoslik – badiiy ijodning taraqqiyot qonuniyatlari, adabiyotning tarixiy rivojini tekshiruvchi fan. Adabiyotshunoslik fanining rivojlanishi jarayonida undan mustaqil sohalari sifatida adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqid ajralib chiqdi. Bir-biri bilan uzviy bog'langan bu sohalarning har biri oldida alohida ilmiy va nazariy vazifalari bor.

Adabiyotshunoslik o'zining hozirgi ilmiy- amaliy bosqichiga ko'tarilguncha uzoq tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Adabiy tushunchalar badiiy asarlarni ilmiy jihatdan bir qadar to'g'ri tahlil qilishning dastlabki usullari qadimgi davrlardayoq maydonga kelgan edi. Miloddan avvalgi 5-4-asrlarda qadimgi Yunonistonda san'at va adabiyot hodisalarini baholashda bir-biriga zid qarashlar yuzaga keladi. Agar Platon haqiqiy dunyoning real mazmuniga mos keladigan doimiy go'zallik mavjudligi haqida ilmga zid tasavvurga ega bo'lsa, Aristotel san'atning asosiy prinsipi hayotni, real dunyoni aks ettirish deb qaradi va san'atning ma'rifiy ahamiyati katta ekanini qayd qildi. U «Poetika» asarida adabiyot turmushni tasvirlaydi, uning asosiy predmeti inson va maqsadi ta'lim-tarbiya degan qarashni ilgari surdi. Adabiyotning asosiy turlari:epos, lirika, va drama deb uqtirish bilan birga, Aristotel syujet, janrlar to'g'risidagi masalalarni, adabiy tasvirni ikki hil realistik va romantik usulini ancha ravshan qilib ko'rsatdi. Ilk o'rta asrda Uzoq va O'rta Sharq mamlakatlarida adabiyot yaxshi taraqqiy etdi. O'rta Osiyoda adabiyot to'g'risidagi qarashlar

9-10-asrdayoq mavjud bo'lib, fan sifatida hali sistemaga solinmagan, poetik qarashlar, stilistika, ahloq kabi sohalar bilan qorishib ketgan edi. Unga aloqador fikrlarning bayon qilinishi shakillari ham turlicha bo'lib, jonli munozaralarda, filologik ilmiy tekshirishlarda, tazkiralar va memuarlarda namoyon bo'lgan. Sharqda, shuningdek, O'rta Osiyoda bugun biz qo'llaydigan adabiyotshunoslik termini shubhasiz bo'lgan emas, uning o'rniga hozirgi iste'moldagi grammatika, stilistika, poetika ma'nolarini ifodalovchi terminlar, shuningdek qofiya ilmi, ilmi bayon, ilmi aruz ilmi maoniy va boshqalarni o'z ichiga oladigan «ilmi adab» tabiri ishlatilga. Ilmi adab garchi dastlabki vaqtlarda biror manoni ifodalashda jonli va yozma nutqda nuqsonlardan saqlanish ilmi sifatida qabul qilingan bo'lsa-da, keyinchalik badiiy adabiyot va uning asosiy masalalarini o'z ichiga oladigan fanning nomi o'rnida qo'llanadigan bo'ldi.

Shu birgina so'z zahirida juda katta ma'no yotadi. Chunki adabiyot insonni ruhiy kamolotga yetaklovchi vositadir. Insonni manaviy olamini kashf etadigan qudratli kuchdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas albatta.

Insonlar hayvonlardan farqli o'laroq, nafaqat moddiy ozuqaga, balki ma'naviy- ruhiy ozuqaga ham muhtojlik sezadi. Agar moddiy ozuqa jismimiz ehtiyojlarini qondirsa, ma'naviy ozuqa bizni ruhiy boyitib, tetiklashtirib, ma'naviy qashshoqlikdan asraydi. ma'naviy yuksalishning eng samarali yo'llaridan biri esa kitob va adabiyotga oshno bo'lish va ixlos qo'yishdir.

Adabiyotning aynan ma'naviyat xazinasi ekanligining yana bir sababi shundaki, uning bag'rida hozirga qadar insoniyat qadrlab kelayotgan eng tansiq hislar- insonparvarlik, adolat, shafqat, o'zaro hamjihatlik, do'stlik, mehr va muruvvat, sevgi- muhabbat, go'zallikka tashnalik

singari o`lmas tuyg`ular jamuljamdir. Adabiyotga oshno tutingan odam qalbiga bu hislar ko`chib o`tishi, uni hazrati insonga aylantirishi, hayotiga nur olib kirib, turmushini turfa mazmun bilan rang -barang etishi, boyitishi muqarrardir.

II.2Xikmatga aylangan hayot yo`li

Nafis so`z san`atida o`zbeklar uchun Alisher Navoiy, inglizlar uchun Vilyam Shekspir, italyanlar uchun Dante, ruslar uchun Aleksandr Sergeyevich Pushkin naqadar beqiyos ahamiyatga ega bo`lsa, nemislar uchun Goethening o`rni ham xuddi shundaydir.

Yohan Volfgang Goethe jahon madaniyati daholaridan biri, betakror ijod sohibi- shoir va adib, dramaturg va tanqidchi, journalist va rassom teatr rejissori, ayni paytda, olim va taniqli davlat arbobidir. Ijodkorning asarlari qomusiy bilimlar xazinasini qamrab olgani kabi, murojaat etgan sohalarni ham sanab sanog`iga yetish qiyin. Goethe falsafa va sharq shunoslik, dinshunoslik va ruhshunoslik bilimdoni bo`lgan, geologiya botanika, zoologiya, yana qanchadan-qancha tabiiy fanlarga doir asarlar bitgan, hatto astrologiya bilin ham qiziqqan.

Hayratlanarlisi shunda ediki Goethening asarlariga qayta-qayta murojaat qilinganda uning ummondek keng va tubsiz falsafiy mushohadalari ehtirolari qalbni larzaga soluvchi qahramonlari ichki dunyosining yangi-yangi qirralari kashf etilaveradi.

U Leypsigda, so`ng Strasburgda huquqshunoslik ilmini egallagan. Uning badiiy ijodi ahamiyatga ega XX asrning 50-yillaridayoq o`zbek adiblari uning asarlari bilan yaqindan tanishganlar. Bu borada Maqsud Shayxzoda va Shukrullo, Muhammad ali va Nasriddin Muhammadiev ham nems klassigi she`rlaridan tarjimalar qilganlar.

Kurrai zaminimizda jahon adabiyoti durdonalarida hisoblangan “

Faust ” nashr etilmagan mamlakat topilmasa kerak. O`zbekiston qahramoni, O`zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovni adabiy jasorati tufayli O`zbek kitobxonlari ham uni o`z ona tillarida zavqlanib o`qish baxtiga muyassar bo`ldilar. Goethe

shox asari tarjimoni Erkin Vohidovni o`zi e`tirof etishicha..

“O`n besh ming misraga” yaqin bu mo`jizaning insoniyat tarixini mag`zi desa bo`ladi.

Goethe bizga qoldirgan

beqiyos adabiy meros uning nafaqat G`arb, balki Sharq madaniyatining katta bilimdoni ekanligidan ham yaqqol dalolat beradi. “Faust” dagi jonli lavhalar ayniqsa, adibning “G`arbu Sharq devoni” buni yorqin isbotidir. Bu uning umum bashariy ijodkor ekanligining dalolatidir shoirning bu asari Sadriddin Salim Buxoriy tomonidan tarjima qilinib nashr etilgan. Nemis adibi ilk ijod namunalaridan hisoblangan. “Yosh Verterning istiroblari” esa o`zbek kitobxonlariga. Yanglishoy Egamova tarjimasi orqali tanish. Qomusiy

bilimga ega bo`lgan Goetheni tafakkur shoiri deb atash mumkin. Uning chuqur falsafiy mushohadalarga, faning juda ko`p sohalariga doir qimmatli ma`lumotlariga boy ijodiy merosi xuddi shundan dalolat beradi.

Shuning uchun bo`lsa kerak, Germaniya Federativ Respublikasidagi manaviyat va ma`rifat bo`yicha ilmi tadqiqotlar olib boruvchi juda nufuzli markaz Goethe nomi bilan ataladi. “Goethe institute” deb nomlanuvchi bu markazning jahonning 79 mamlakatida, shu jumladan 1998 yildan beri Toshkentda ham filiali mavjud.

Yohann Wolfgang Goethe yashab ijod qilgan davrdan, mana, ikki yarim asrdan ko`proq vaqt o`tgan bo`lsa ham uning bebaho asarlari zamondoshlarimizni hamon to`lqinlantirib kelmoqda. Bu-adibning manguikka daxldorligi mezoni. Hech shubha yo`qki, adabiyot ixlosmandlarining yangi-yangi avlodlari ham yana va yana uning ijodiga murojaat etishaveradi. Buyuk adibning boqiyliigi ham xuddi ana shundadir.

Insoniyatning ijtimoiy adolat va odam qadr qimmatini uchun, bilim va tafakkurning g`alabasi uchun, yaxshilik va go`zallikning tantanasi uchun olib brogan ko`p asrlik kurashi tarixida o`z ulug` iste`dotlari bilan, o`z pokiza vijdon va qalblari bilan fidokorona xizmat qilgan buyuk siymo o`lmas nemis shoiri va adibi, mutafakkiri Goethedir. Germaniyaning, qoloversa, butun Yevropaning va shu tufayli jahonning, madaniy va badiiy taraqqiyotiga shoirning qo`shgan hissasini peshqadam bashariyat hamisha yuksak baholab, unga sidqidildan o`z ehtiromini bildirib kelgan.

Olim tug`ilib o`sgan va har jihatdan davrda kamol topgan davrda yani XVIII asrning o`rtalarida shoirning vatani juda achinarli. Germaniya o`sha chog`da 320 ta mayda-mayda mustaqil davlatlarga parchalangan qoloq dehqonchilik mamlakati bo`lgan. Son-sanoqsiz o`zaro nizo va urushlar butun mamlakatni vayron va harob qilib, qoshshoqlik va jaholatning so`nggi

og`ir avoliga tushurgan. Tabiiyki, shuning natijasida siyosiy va madaniy hayotda ham turg`unlik hamda tushkunlik hukm surgan.

Germaniyaning o`sha davrdagi bunday vatanparvar farzandlaridan biri Yohann Volfgang Goethe 1749-yili 28-avgustda Frankfurt Mayn shahrida imperiya kengashchisi degan ancha katta lavozim egasi bo`lgan amaldor yurist oilasida tug`ilgan. Shoirning otasi bir temirchining nabirasi va tikuvchining o`g`li bo`lgan. Biroq qobiliyatli va o`qimishli advokat sifatida tanilgani uchun shahar sudyasining qiziga uylangan va ko`p o`tmay yuqori darajali amaldor bo`lgan. Goethening onasi Yekaterina – Yelizaveta esa o`g`li Yohannga qiziq-qiziq ertaklar aytib bergan va undagi hayol, ham zavqni parvarish qildirishga e`tibor bergan. Goethe o`zi keyinchalik xarakterining shakllanishida ota va onasining ta`sirini shunday e`tirof etadi:

«...Hayotda jiddiyatim

Otamdan menga meros

Erkaklarga rag`batim,

Sho`xlikka muhabbatim

Onamdan o`tgan, bu- rost...»

Maqsud Shayxzoda tarjimasi

Goethe kichik yoshidan katta qobiliyat ko`rsatib, har narsaga qiziqqan, hamma narsani bilgisi kelgan. Unda ayniqsa tillarga, tarixga va she`riyatga katta moyillik ko`zga tashlangan. Tez vaqtda u fransuz, ingliz, italyan, lotin va yunon tillarini o`zlashtirib olgan. Yohanning tabiatga, tabiiy manzaralarga maftunligi shu darajada ediki, u soatlab quyosh, bulut, osmon irmoq va bog`larning tomoshasidan to`ymagan.

16yoshga kirganda Goethe otasining orzusi va taklifiga binoan Leypsig universitetining yuridik fakultetiga o`qishga kirgan, lekin keyinchalik Strasburg universitetining yuridik fakultetida o`qishini davom ettirib, oliy ma`lumotli yurist diplomini olgan. 21yoshida doktorlik dissertatsiyasini yoqlab yuridik fanlar doktori unvoniga muvaffaq bo`lgan. Biroq yuristik kasbi uni qiziqtirmagan. U ko`pincha meditsina, tabiat va adabiyot bilan shug`ullangan. Uning birinchi she`rlari ancha puxta ishlangan bo`lsa-da, hali nazirachilikdan iborat bo`lgan. Strasburg shahrida Goethe o`zining asl ijodiy yo`lini topib olgan. Xalq poeziyasi, buyuk klassiklar- Ossian, Gomer, Shekspir asarlari bilan maroqlangan, bir qancha original she`rlar, masalan, «Cho`l chechagi» ni yozgan.

Nemis va jahon klassik adabiyotining genial siymosi Yohann Volfgang Goethe ijodi insoniyat badiiy va falsafiy tafakkur tarixining oltin sahifalaridan biridir.

Goethe ijodining birinchi davri(1770-1775)

«Bo`ron va shiddat» adabiy harakatiga taalluqli bo`lgan. U bu davrda Strasburgda yashab, «Gyots fon Berlixingen» «Klavigo» «Stella» «Yosh Verterning iztiroblari» «Muhammad»

«Prometey» kabi dramatik va prozaik asarlar, lirik sheʼrlar hamda estetikaga oid bir necha maqolalar yozgan.

Bu davrning birinchi yirik mahsuli «Gyots fon Berlixingen» dramasi (1773) boʻlib, bunda shoir dehqonlarning feodallarga qarshi norozilik harakatiga rahbarlik qilgan ritsar obrazini tasvirlagan. Gyots harakteridagi qarama-qarshiliklarga qaramasdan, bu asar yangi nemis adabiyotidagi burilishning birinchi belgisi va boshlangʻich nuqtasi boʻlgan.

1773-1774 yillarda boshlanib tugallanmagan «Prometey» tragediyasida shoir insonlarning erk va nur yoʻlida taqdirga va xudolarga qarshi isyonini zoʻr mahorat bilan ifodalagan. «Yosh Verterning iztiroblari» (1774) romanida tolega qarshi kurashdan ojiz qolgan yigitning fojeasi kuylangan. Bu ikkala asar Goethening «Boʻron va shiddat» davri uchun, yani eskilikning chirik va adolatsiz qoidalariga qarshi isyon koʻtargan davr uchun hosidir.

Mavjud urf odatlarga va qonunlarga qarshi kurashuvchi qahramon obrazi Goethe ijodining bu davrida yetakchi gʻoyaviy ahamiyatga ega boʻlgan. Garchi muallif oʻz qahramonlarini halokatga olib borsa-da, bu mardona norozilikning oʻzi yosh avlodni inson shaʼni va qadri yoʻlida kurashga chorlagan.

Goethe ijodining ikkinchi Vaymar davri (1775-1832)

Shoir hayotining asosiy qismini oʻz ichiga olgan. Shoir 1775-1788 yillarda Boʻron va shiddat adabiy harakatining inqiroziga sabab boʻlgan shtyurmerlik kayfiyatidan oʻzini tortgan. Goethe qarashlaridagi bu oʻzgarish uning hayotidagi muhim hodisa- shoirning Vaymarga ketishi davriga toʻgʻri kelgan. Uncha katta boʻlmagan Vaymar-Sakson gersogligining poytaxtida u umrining oxirigacha davlat arbobi boʻlib faoliyat koʻrsatgan.

Ayni paytda Goethe adabiyot va sanʼat tabiiy fanlar bilan muntazam shugʻullangan. Bu davrda u «Egmont», «Torkvatto Tasso», «Rim eligiyalari», «Ifigeniya Tavridda», «German va Doroteya», «Vilgelm meysterning oʻquvchilik yillari»

kabi drama, poema va romanlar yaratgan, lirik sheʼrlar va balladalar yozgan. Goethe ijodida markaziy oʻrin egallagan shoxona asarlari «Faust» va «Gʻarbu Sharq» devoni ham shu davrda dunyoga kelgan.

Goethe fransuz inqilobini loqaydlik bilan qabul qilsa-da, uning tarixiy ahamiyatini toʻgʻri baholagan. 1794-yil sentabr oyida fransuz qoʻshinlari Vilmi ostonalarida Yevropa oʻrta asr mustabidlik ittifoqchilari qoʻshinlariga birinchi qaqshatqich zarbani bergan. Bu munosabat bilan: **«Shu kun va shu yerdan boshlab umumjahon tarixida yangi davr boshlandi»**- deb yozgan shoir.

1775-yilda shoir hayotida yangi bir davr boshlandi. Oʻz asarlari bilan, ayniqsa «Yosh Verterning iztiroblari» bilan, butun Yevropada katta shuhrat qozongan. Goetheni Vaymar shahzodasi, keyinchalik Vaymar-Sakson qirolligi gersogi Karl Avgust oʻz saroyiga xizmatga chaqirgan. Bu daʼvatga koʻnib Vaymarga koʻchib borgan Goethe dastavval

davlat Mahfiy kengashining aʼzosi boʻlgan. Asta sekin yoʻllar, harbiy binokorlik, togʻ-konchilik va oʻrmonchilik komissiyalarining rahbarligi ham unga topshirilgan. 1782-yili shoir sud raisi qilib tayinlangan va dvoryanlik unvonini olgan. 1790-yili esa u maorif vaziri hamda Vaymar teatrining direktorligi lavozimlarini oʻz zimmasiga olgan. Shunday qilib, yosh advokat katta gʻayrat bilan davlat va siyosat olamiga kirib ketib, kichik qirollikda gersogdan keyin birinchi oʻrinni egallagan.

Ammo saroy amaldorlarining dabdabasi unga juda qimmatga tushgan. Vaymar davrining birinchi oʻn yilligida u ijodda hech qanday asar yarata olmagan. Saroy muhiti unga salbiy taʼsir qilgan. Bu qalbaki dabdabadan va fisqu fasodlardan bezgan Goethe 1786-yilda, Gersogdan ijozat olmasdan, Italiyaga ketgan. Italiya shoir hayotida koʻpdan beri shoir hayotida “Sanat va goʻzallikning klassik diyori” boʻlib gavdalangan. U ikki yil Italiyada sayohat qilib, bu yerda mashhur “Egmont”, “Ifigeniya Tavrida” va “Torkvato Tasso” dramalarini yozib tugatgan va yigitlik yillarida oʻylagan. “Faust”ning rejasini ishlagan.

1788-yilda qaytib kelgan shoirning adabiy qarashlarida katta oʻzgarishlar yuz bergan. U mumtoz sanʼatning tugal xususiyatlariga tan bergan. Uning fikricha, sanʼatkorning vazifasi jamiyatdagi qarama-qarshiliklarga eʼtibor qilmasdan, odamzod ruhining ichki fazilatlarini bilan shugʻullanishdan iboratdir.

Shoir ijodining bu davrini “vaymar klassizmi” deb ataganlar. U yozgan “Egmont” tragediyasida asar boshida Ispaniya hukmronligiga qarshi kurashda Niderland milliy ozodlik harakatiga boshchilik qilmoqchi boʻlgan graf Lamoral Egmont dramaning ohiriga borib kurashdan voz kechgan va dunyo saodatini faqat sevgilisi Klerxenga boʻlgan muhabbatida koʻrgan. “Torkvato Tasso” tragediyasida esa Goethe Italiyan uygʻonish davrida shoir va saroy muhiti oʻrtasidagi qarama-qarshilikni koʻrsatmoqchi boʻlgan. Bunda Goethening oʻz hayoti va taqdiriga doir motivlarni payqash qiyin emas.

1789-1793- yillarda yuz bergan Fransiyadagi inqilobiy jarayonlar butun Yevropani larzaga keltirgan. Goethe fransuz inqilobini qabul qilmasa-da, uning tarixiy ahamiyatini yaxshi tushungan. Germaniyaning istiqbolini oʻylab inqilobiy usulni emas, “yuqoridan” boʻlayotgan tashabbus bilan islohot yoʻlini maʼqul deb bilgan. Bu qarashning mahsuli “Vilgelm Meyster” romanidir. Bu romanning qahramoni Meyster shahar tabaqalaridan chiqqan ziyoli yigit boʻlib, koʻp izlanishlardan keyin voqelik bilan kelishib va maʼrifatli dvoryanlar bilan ittifoq boʻlib amaliy ishlar bilan shugʻullanish zarur degan xulosaga kelgan.

XVIII asrning oxirlari va XIX asrning boshlarida Goethe ajoyib va koʻp asarlar yozgan. Bu asarlar uning dohiyona ijodiy tafakkur egasi boʻlganidan dalolat beradi. “Jodugarning shogirdi”, “Korinf kelinchagi”, “Tangri va raqqosa”, “Xazina izlovchilar” kabi sheʼrlari,

“Pandora dramasi, “Qarindoshlar”romani, “G`arbu sharq devoni”, Vilgelm Meysterning sayoqlik yillari” romanlari, “Marienbad marsiyasi” va boshqa bir qancha asarlar shular jumlasidandir.

1809-1831yillar mobaynida Goethe “Poeziya va haqiqat” nomli katta avtobiografik qissasini yozgan. Shu bilan bir qatorda o`zining asosiy asarlari hisoblangan”Vilgelm Meyster” va “Faust” ni qayta ishlashni davom ettirgan.

Vaymar davrida Goethe keng ko`lamli ilmiy faoliyat olib borgan. Uning zoologiya va botanikadagi yangi kashfiyotlari fan tarixiga qo`sgilgan katta hissasi hisoblangan. Bulardan tashqari u meteorologiya va mineralogiya, geologiya va ximiya, fizika bilan ham jiddiy shug`ullangan. Mashxur rus olimi K.Timiryazev: **“Goethe- kishilik tafakkuri tarixida bir kishi siymosida ulug` shoirni, chuqur mutaffakkirni va buyuk olimni mujassamlashtirgan yagona o`rnakdir”,-deb yozgan.**

Ilm va mehnatga zo`r ixlos qo`ygan Goethe insoniyatning va barcha xalqlarning taraqqiyotiga va do`stona yashashiga qattiq ishongan.

O`z ijodining so`ngi davrida Goetheqadimiy hind va xitoy ayniqsa musulmon Sharqining madaniyati, adabiyotiga qiziqqan. O`rta osiya va Eronning tarixi hamda madaniyatini chuqur o`rganib, bu xalqlarning “ruhini anglamoqchi bo`lgan. U Sharq shoirlaridan ayniqsa, Hofiz Sheroziyni yoqtirib, uni “yaqin birodarim” deb atagan. Hofizdagi erkin fikr, hayolchanlik, insoniy shan va xurofotga itoat qilmaslik kayfiyatlari Goetheni hayotsevarlik g`oyasiga juda mos tushgan. Mumtoz she`riyatga erkin nazira yo`lida yozilgan ajoyib she`rlaridagi lirizm, rang va tovushlar boyligi, ehtirosli sevgining taronalari o`quvchini shu qadar maftun etadiki, bular 65 yoshdagi shoir tomonidan yozilganiga kishi hayron qoladi. (bu davrda Goethe yosh go`zal shoirani – Marianna Fon Villemerni sevgan)

Shoirning “G`arbu Sharq devoni” ning jozibasi undagi otashin muhabbat bilan chuqur falsafiy fikrlarning hamohang bo`lishidadir. Bu she`rlarda shoirning jamiyatdagi o`rni hayot, muhabbat, xalq haqida ajoyib ma`nodor va mutaffakkirlarcha mulohazalari bayon etilgan. O`sha davrdagi Yevropa san`at arboblari Sharq xalqlarini nazar-pisand qilmagani holda, Goethe, aksincha ularning she`riyatini va insoniy fazilatlarini yuksak baholagan. Shu o`rinda uning Sharq shoirlariga bergan ajoyib bahosini esga olish kifoya:”Aytishlariga qaraganda , eronliklar o`zlarining besh asr mobaynida o`tgan shoirlaridan faqat yettitasinigina buyuk shoir deb qabul qilganlar. Holbuki ular yaroqsizga chiqargan shoirlar orasida ko`plari mendan yuqori tursa kerak”.

Xo`sh, bu “yetti yulduz” kimlardan iborat? Na eroniylar o`zlari va na Goethe bunday bir “sa`bai shuaro” tizganlari yo`q. Mashxur nemis sharqshunosi Hammerning ko`p tekshirishlar natijasida chiqargan xulosasiga ko`ra, bular:Firdafsiy, Anvari, Nizomiy, Jaloliddin Rumiy,Sa`diy Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiydir. Goethe o`zini kamsitib, Sharq

shoirларini ulug'lashi bilan o'z davrida Yevro'pada keng tarqalgan irqchilik nazariyasiga va tor millatchilikka qanchalik begona bo'lganini isbotlagan. Tabiatning asovligini yemirib, rabiiy kuchlarni inson irodasiga bo'ysundirish va erkin xalqning ijodiy mehnatini uyushtirish g'oyasi Goethening shoh asari "Faust" da o'z qudratli ifodasini topgan. Bu dramatik poemaning bosh qahramoni doktor Faust aslida xalq she'riyati obrazlaridan bolib, keyinchalik kitobiy adabiyotga kirib krkgan. Goethe bu asri ustida sal kam 60 yil ishlagan.

Doktor Faust butun koinot va tabiat sirlarini ilmu fanning kuchi bilan bilib, tushinishni istaydi. Iblis (Mefistofel)xudo bilan garov o'ynab – men albattaFaustning nafsini qo'zg'ab, yomon yo'llarga boshlayman deydi. Bahslashuv shartiga ko'ra Faust nafsoniy lazzatlardan qanoatlansa iblis yutgan bo'ladi.

Mefistofel Faustning pinjiga kirib,uni sehr yordamida navqiron yigitga aylantiradi. U Gretxen ismli sodda qizni sevib qoladi. Imperator koshonasida turli bazmlarda bo'ladi. Ammo uning ruhi ijodga moyil bo'lib nafsoniy lazzatlar bilan kifoyalana olmaydi. Iblis Faustni qadimgi Yunonistonga olib boradi, klassik husn diyorida Sparta malikasi go'zal Yelena bilan tanishtiradi. Ammo bu husn Faustni qanoatlantirmaydi. Uning fikricha go'zallik o'tkinchi narsa. U endi amaliy ish qilishni istaydi. Xalqqa farovonlik va rohat keltiruvchi ijodkor bo'lishni xohlaydi.

Faust dengiz qirg'og'ida bekor yotgan yerni olib, katta serqatnov bir shahar quradi. Dengiz ofatlariga qarshi Faust rahbarligida kurash olib borgan mehnatkashlar og'ir zahmatlar bilan bo'lsa-da, o'z maqsadlariga yetib , o'z maqsadlariga yetib , o'z maqsadlariga yetib , o'z maqsadlariga yetib , o'z maqsadlariga yetib, baxtli va erkin yurtini obod qiladilar. Keksaygan, ko'zlari ojiz bo'lib qolgan Faust inson hayotining ma'no va mazmunini endi tushinib, o'z dunyiviy faoliyatidan qanoatlanadi va shunday hulosaga keladi:**hayotning mag'zi-mehnat va kurashdir.**

**“Hayot va erkinlikka kim ekan loyiq?
-Bu yo'lda kurashgan jasur xaloyiq!
Ayamay kuchini yosh- yalang, chollar,
Mehnatda gullatsin turmushning ko'rkin,
Toki, ko'rib qolay nurga chulg'angan
O'lkamni erkinu xalqimni erkin”**

Maqsud Shayxzoda tarjimasi.

Kelajakka qaratilgan bu bashoratli monologdan keyin Faust o'ladi. Mefistofel, endi Faust hayot ma'nosini anglab qanoatlanib ketdi deb, o'zini g'olib hisoblaydi va Faustning ruhini olib

do`xaxga jo`natmoqchi bo`ladi, biroq u bunga muyassar bo`la olmaydi. Chunki farishtalar uning jismi bilan ruhini osmonga olib ketadilar. Bu yerda Faust bilan Margarita (Gretchen) ning ruhi uchrashib azaliy azaliy saodatga qovushadilar. Poetik tragediyaning xotimasida shoir xristian afsonalaridan foydalanib, o`z oliyanob g`oyasini gavdalantirmoqchi bo`ladi. U ham bo`lsa: yaxshilik va yomonlik o`rtasidagi kurashni ramziylashtirib, bir qancha azobu uqubatlarga qaramasdan, yaxshilikning g`alabasi albatta muqarrardir, degan fikrdan iboratdir. Faust insoniyat va xalq baxti uchun ulug` mehnat qilgani tufayli uning makoni va mavqei eng yuksak manzillarda bo`lmog`i lozim, degan xulosa bilan asar tugaydi.

Goethe o`zining bu o`lmas tragediyasida buyuk bunyodkorni, erkin mehnat asosida qurilgan jamiyatni orzu qiluvchi hayolparastni, ya`ni jahon adabiyotining eng yaqqol obrazlaridan biri bo`lgan doktor Faustni genial misralarda tarannum qilgan.

1831 yil avgustida Goethe "Faust" bo`yicha olib borgan ishlarini tugatgan. O`sha yili 28-avgustda Vaymarda shoirning tug`ilganiga 82 yil to`lishi munosabati bilan katta rasmiy tantanalar o`tkazilgan. Bu Gortheni o`zi tirikligida o`tkazilgan so`ngi yubileyi bo`lgan va 22-martda "eng ulug` shoirning hayot torlari uzilgan". Goethening o`lim oldidan aytgan so`ngi so`zi shu bo`lgan: "Derazalarni ochinglar, ko`proq yorug` bo`lsin!"

O`zining butun ulug`vor umri davomida va daholarcha yaratilgan asarlarida xalqqa insonlarga doimo baxt, nur, ravshanlik, "ko`proq yorug`" tilagan Goethening shu so`ngi so`zida katta ramziy ma`no va hikmat bor.

Goethe xalqlarning do`stligini, hamkorligini va bu xalqlar oilasida Germaniyaning mo`tabar o`rinlardan birini egallab turishini orzu qilgan. Buning uchun u Germaniyaning birlashgan, qudratli sulhparvar, madaniy mamlakat bo`lishini istagan.

Bugungi kunda germaniyada Goethening gumanizm va vatanparvarlik bilan nashr etilgan asarlarini hurmatlab, uning nomini "birlikning milliy qasami"day tilga olmoqdalar.

Moziy huquq asrlar mobaynida she`riyat libosida bo`lganligidan dalolat beradi. Huquq kuch - qudratning manbai ham qalb to`ridan otilib chiqadigan ehtirosli va sehrli so`zda bolgan. Aflotun tarifi bilan aytilsa: "Huquq – ilohiyot tuhfası bo`lgan sanolar shaklida dunyoga kelgan"

Tarixan huquqda nazmiy an`analarning talayginanamunalari va yodgorliklari saqlanib qolgan."Avesto" Tangri sanolari shaklida bo`lgan. Qur`ondagi vaz va farzlar, karomatlar, shariat va axloq- odob qoidalari, xuddi "Injil"da bo`lganidek sanolarda bitilgan.

Jahon adabiy merosida insonlarda huquqiy ongini shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, pirovad natijada insoniyat tarixida buyuk huquqiy yangilanishlar tabiatiga qudratli ta'sir ko'rsatgan ko'pdan-ko'p huquqiy manzaralar va timsollarni uchratish mumkin. "Huquqni anglab yetish kaliti"ni nafaqat huquqshunolar balki ilohiyotchilar, faylasuflar izlaganlar. Bu qidiruvni ko'plar o'tmishning buyuk adiblari hamda xalq dostonlari, ertak va rivoyatlarning nomsiz mualliflari olib borganlar. Ular qatorida ruhiyat daholari Alisher Navoiy, Aligieri Dante, Erazm Rotterdam, Vilyam Shekspir, Umar Xayyom, Fridrix fon Shiller, Fyodor Dostoyevskiy, Lev Tolstoy boshqa yana ko'plab buyuk mutaffakkirlar nomlarini keltirish mumkin.

Jahon adabiyotining ana shu namoyondalari orasida Goethe alohida mavqega ega.

Buyuk nemis shoiri yevro'paliklar tasavvuridagi barkamol inson. Uyg'onish davri namunasining so'ngi timsollaridan biri hisoblanadi. Uning adabiy va ilmiy merosi 143 jildni qamrab oladi. Ularda badiiy ijodning barcha namunalari – ertaklardan tortib, pesa va romanlargacha bor. Adib 82 yoshida Arshi Alodagi ilohlarga xosdonishmandlikka muyassar bo'lish bilan birga qalb yoshligi, yashash va sevishtirishni yo'qotmagan holda hayot mazmuni va muhabbat haqida ajoyib she'rlar bitgan. Goethe ijodiyoti ma'naviy hayotning hamma sohalarida ifoda usuli uchun namuna hisoblanadi. Fridrix Vilgelm Yozef Shelling sharofati bilan u falsafa olamiga kirgan. Fridrix Karl fon Savine uni huquqshunoslikka yetaklagan. Shoirning tabiiy fanlarni egallashida Aleksandr fon Gumboldtning, falsafada esa Vilgelm fon Gumboldtning hissalarini katta bo'lgan. Vatandoshlari hozir muloqotda tabiiy, erkin ishlatadigan nemis tilining go'zal iboralarini Goethesiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bilan birga buyuk alloma butun umri davomida faqat badiiy ijod bilangina mashg'ul bo'lmagan. Uning ongini hayoti – universitetda tahsil olishdan boshlab, mukammal bilimga ega bo'lish uchun o'z ustida mustaqil ish olib borunga qadar huquqshunoslik bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Goethe davlat xizmatidagida huquqshunoslik faoliyati davrida to'plagan ancha boy tajribasini umumlashtirgan. 1776-yil 11- iyundan u 1200 taler miqdoridagi maosh bilan maxfiy huquqiy maslahatchi lavozimida ishlagan. U mahfiy kengashda ishtirok etish va ovoz berish huquqiga ega bo'lgan. Goethe 1779- yil 5-sentabridan vazir maqomidagi maxfiy maslahatchi, 1815- yildan Bosh vazir lavozimiga tayinlangan, 1782- yilda dvoryanlik lavozimini olgan.

Haqiqatdan ham, Goethening Frankfurtdagi advokatlik amaliyoti davrida egallagan huquqshunoslikka oid bilimlari unga gersog Karl Avgust xizmatida ekanida juda qo'l kelgan. Chunki mahfiy kengashda uning zimmasiga talaygina vazifalar yuklatilgan. U bir necha mahfiy hay'atlarda ish olib borgan yoki ularga xabarlik qilgan. Misol uchun u harbiy hay'at raisi bo'lgan. Gersog unga yo'l qurilishi ma'muriyatiga rahbarlik qilishini topshirgan. U moliya boshqarmasiga ham rahbarlik qilgan.

O'sha vaqtda Goethe rasmiylashtirgan hujjatlar matni huquqshunos uslubini aks ettirsa ham, ularda shoir Goethega xos iboralar ham uchrab turadi. Shunisi qiziqarlilik, Karl Avgust 1875yilda idora tilini soddalashtirish va ayrim bayonlarni qisqartirishga uringanida, Goethe bu yangiliklarga qat'iy qarshi chiqqan. U rasmiy idora tili saqlanib qolishi tarafdori bo'lgan.

Goethening badiiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy faoliyati o'zaro uyg'unlikda alohida o'rin tutadi. O'zi 1782-yili Knebelga yozgan maktubida ifoda etganidek, ularni xuddi "bir muqaddas tugunga" bog'lagan. Shu munosabat bilan "huquqshunos Goethe" go'yoki "shoir Goethe" yo'lga g'ov bo'lganligi, bunda nazmning lozim qofiyalari dag'allashtirilgani haqidagi davolar mutlaqo asossizdir. Ha u tom ma'noda professional huquqshunos olim bo'lmagan. Biroq uning amaliy huquqiy tayyorgarligi jamiyatda ro'y berayotgan voqealar – ziddiyat va nizolarni huquqshunos nigohi bilan ko'rish imkonini bergan.

Goethening badiiy ijodi hayotga bo'y sundirilgan. Bu shuningdek uning huquqshunoslik amaliyotiga to'raligicha taalluqli bo'lib, huquq qanday imkon berishi va bera olmasligi mumkinligini idrok etishga xizmat qilgan. Goethening juda ko'p asarlari o'z hayoti hamda boshqalar hayotida huquqning o'rni borasidagi ijobiy va salbiy baholar o'rtasidagi ikkilanishlarini aks ettirgan.

Goethe qonunlarni asoslash uchun ham, tanqid qilish uchun ham ularni xolis baholashga intilgan edi. Goethe fikricha, huquqiy qonunlar muayyan sharoitlarda "suyak suradigan hastalikka" aylanishi mumkin bo'lsa, turmushning shakllanish sifatida tushiniladigan "abadiy qonunlari" barcha subektivlikning timsoli va namunasi sifatida ko'kka ko'tariladi. Huquqiy qonunlar obektiv jahon tartibiga yaqinlashishga urinishdan iboratdir.

Insoniyat qonunlari, Goethe fikricha tabiiy huquq bo'lib, u insonlar hayotiga oid qonunlarninorigi dunyodan turib tiqishtirayotganlardan, ayniqsa kecha qanday vazxonlik qilgan bo'lsalar, bugun ham shuni takrorlayotgan ruxoniylar tufayli paydo bo'lmaydi. Spinoza g'oyalari ta'sirida Goethe: "Tabiat abadiy, zarur va shu qadar ilohiy qonunlarga muvofiq ravishda amal qiladiki, Tangrining o'zi ham unda biror narsani o'zgartira olishi mumkin emas", - degan. Inson – tabiiy jonzotdir. Tabiiylik, onglik, inson huquqlari tabiat ijozat etgan huquq sifatida, namoyon bo'ladi. Bu masalaga inson hayot- mamotini belgilovchi tangrining aslo aloqasi yo'q.

Goethening insonning tabiiy mohiyati, "tabiiy qonunlar" xususidagi she'r va fikrlari bebaho va mangudir. Agar Goethe lutf etayotgan etayorgan inson huquqlari sinchiklab tahlil etilsa hamda uning "jozibali hurlik va mo'tabar tenglik" to'g'risidagi "sanolar sanosi" xalq ijodiyoti tiliga o'girilsa, mohiyat jihatidan erkinlik tenglik sharti ekanligi ayonlashadi. Ammo u shunday tenglikki, mulk daxlsizligini ta'minlaydi. "Jamiyat hech ham erkinlik tushunchasida emas, balki u tenglik tushunchasidan o'zgacha holda vujudga kelmaydi". Biroq bu tenglik

jamiyat shunday tashkil etilishiga asoslanganki unda jamiyatni “sen kimsan” degan tushuncha emas, faqat “sen nimaga egasan” tushunchasi qiziqtiradi.

Bir qiyofada ishbilarmon inson va ijodiy shaxsni mujassamlashtirish Goethe badiiy uslubining o`ziga hosligidir.

To`g`ri, Goethe mohiyati jihatidan huquqshunoslik ustuvor bo`lgan dunyoqarashini rivojlantirmagan, qonun bo`yoqlari bilan jahon manzarasini yaratmagan (sinchkovroq nazar bilan qaralganda, shuning o`zi ulkan ustuvorlik bo`lib chiqadi).

Ammo yuqorida qayd etilganlar Goethening badiiy ijodiyotida huquqiy ta`limning ahamiyati va o`rniga oid keng tarqalgan xato qarashlarni rad etish uchun yetib ortadi. “Mening adabiy ijodim hayotga bo`ysundirilgan “, - deb yozgan edi u 1780-yil kestnerga. O`z navbatida, Goethening badiiy ijodiyoti bo`ljak huquqshunoslik shakllanishiga sezilarli ta`sir ko`rsatgan. Goethe she`riyati Yevropa ma`naviy dunyosini shakllantirgan. Uyg`onish davridan etiboran huquqiy ong bu dunyoqarashning tarkibiy qismi hisoblangan. Bu esa o`z navbatida, huquqshunoslik ravnaqigaqudratli ta`sir ko`rsatgan.

“Men juda qunt bilan, hatto serhafsasalik va tirishqoqlik ila advokatlik qilmoqdaman...”

Buyuk adibining tarjimai holidan mufassal tanish bo`lmaganlar uchun uning ushbu e`tirofi kutilmagan bo`lishi mumkin.

Vaholanki, Goethening ongli hayoti – universitetda tahsil olishni boshlaganidan har taraflama bilimga ega bo`lish uchun o`z ustida mustaqil ish olib borgan yillarigacha huquqshunoslik bilan bog`liq bo`lgan. U universitetda mahsus yuridik ta`lim olgan, advokat sifatida amaliy faoliyat ko`rsatgan.

U huquqshunoslik kasbi bilan onasi tomonidan ham, otasi tomonidan ham bog`liq bo`lib 16 yoshligida Leypsig universiteti yuridik fakultetiga o`qishga kirgan. Biroq kasalligi tufayli uni tamomlay olmagan. Goethening universitetga kirishi tasodifiy bo`lmagan. Sobitqadam inson bo`lgan uning otasi o`g`lini huquqshunoslikni o`rganishga barvaqt davat etadi.

Goethening otasi Yohann Kasper (1710-1782) huquqshunoslik doktori ilmiy unviniga ega bo`lib, hayotidagi muvaffaqiyatlariga bevosita yuristik kasbi tufayli erishganini e`tirof , etib , yakkayu yagona og`lining yashashdan maqsadi odil sudlov tangrisi – Femidaga hizmat qilishda , deb bilishini xohlagan.

Goethe o`z yuridik ta`limini Strasburg universitetining yuridik fakultetida nihiyasiga yetkazib, huquqshunoslik litsensiyati unvoni uchun dissertatsiyasini himoya qilgan.

O`zbekiston Qahramoni, o`zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning nodir tarjimonlikiste`dodi tufayli Goethening shox asari – “Faust” ni ona tillarida o`qishga muyassar

boʻlgan oʻzbek kitobxonlari nemis mumtoz shoirining oʻz huquqiy taʼlimi haqida Faust tilidan bayon etgan quyidagi satrlari bilan tanish:

**“Ilohiyot ila band boʻldim,
Falsafada xiradmand boʻldim.
Boʻldim yana adolatshunos,
Hakim boʻldim – tabiatshunos”.**

Erkin Vohidov tarjimasi

U huquqshunos diplomi bilan Strasburgdan Frankfurtga qaytib kelgach, advokatlikka qabul qilish toʻgʻrisida iltimosnoma taqdim etgan. Bir necha kundan keyinq bu murojaati ijobiy hal qilinib, Goethe 3- sentabrda ham shahar sudi advokati, ham Frankfurt advokati sifatida qasamyod qilgan. Yosh Goethening advokatlik faoliyati muvaffaqiyatli boshlanishida oila aʼzolari, doʻstlari, jumladan, boʻlajak kuyovining (singlisining eri) otasi Shlosserlar oilasi yordam qoʻlini choʻzgan.

Goethe oʻz advokatlik idorasini otasining Grosser- Xirtgrabendagi uyida ochgan. U huquqshunoslikka oid ishlarini yordam soʻramasdan oʻzi muvaffaqiyatli olib borgan. Otasi imperiyaning huquqiy masalalari boʻyicha maslahatchisi boʻlganligi sababli amalda bu ishlarni olib bora olmasdi.

Goethening tarjimai holini oʻrganganlar uning mijozlari boy hisoblanmagan mayda fermerlar ekanligi haqidagi xulosaga kelganlar. Bu mijozlar orasida qarzdorlar va sudhoʻrlar, aksionerlar va mulk egalari, ijarachilar va merosxoʻrlar uchragan. Bir safar Goethega hatto qishloq jamoasining manfaatlarini himoya qilishga toʻgʻri kelgan. U 28 ta sud jarayonidan 7 tasida huquqlari kamsitilgan yahudiylarni himoya etgan. Shunisi eʼtiborliki, Goethega sudda oʻz advokatlik faoliyatini meros bilan bogʻliq jamoa shartnomasini bekor qilish ishi bilan boshlashiga toʻgʻri kelgan. Bu sud ishining mohiyati quydagichadir: moʻjaz chinni buyumlar egasi hisoblangan ota shu mulkiga sherik boʻlgan oʻgʻlini merosxoʻr qilgan. Meros shartiga koʻra ,otasi vafot etgan taqdirda butun korxina oʻgʻli nomiga oʻtar edi. Ammo u buning evaziga ikki singlisiga muayyan miqdorda mablagʻ toʻlashi kerak edi. Lekin nima uchundir ota oʻz qarorini oʻzgartirib, oʻgʻlidan meros shartini bekor qilishni ralab etgan. Goetheni advokatlikka yollagan oʻgʻil oʻz huquqlarini himoya etishni iltimos qilgan. Shartnomada agar ota – oʻgʻil oʻrtasida kelishmovchilik kelib chiqsa, ota oʻgʻliga korxonani hayotlik vaqtidayoq hatlab berishi koʻzda tutilgan edi.

Goethe butun yoshlik shijoati bilan huquqiy “jangga tashlangan”. Bu jarayon davomida sud yangi advokatning salohiyatini to`la his etgan. Advokat Goethe ijobiy huquq normalarini tan olmas, ochiqrog`i ko`rgani ko`zi yo`q edi. U qonun tamoyillariga tayanib ish ko`rish tarafdori bo`lgan. Himoyachi sog`lom aql va adolat tuyg`usiga murojaat qilgan. “Goethening shaklan g`oyat shoirona nutqlari ayni paytda rasmiyatchilikka mutlaqo e`tiborsizligi bilan ajralib turgan”.

Goethe himoyachi sifatida o`zi yutib chiqqan birinchi sud ishida huquqshunosdan yaqqol ravishda ustunlik qilgan. U bu ishda muholifi, hayotda do`sti advokat Moorsni ayab o`tirmagan. Yosh advokat Goethe o`z fikrlarini qanday asoslaganiga ikki misol:”Yolg`on libosi o`ziga juda torlik qilib qolgan, uni bir tomonga nortmoqchi bo`lsa, ikkinchi joyi ochilib qolyapti...”

Quvonchga yo`lgan holda, nihoyat qurilish uchun maydon topganingda, unutmaginki, u yer bo`lmasdan, suv yaxlab muzlikka aylanganjoy bo`lishi mumkin. Va shunda bahor quyoshi muzlikni eritishi bilanoq, barpo etilgan imorat qulab tushadi. Ishqilib usta bu binoda o`z ismini sharafllovchi haykal ham o`rnatishga pul sarflamagan bo`lsin- da!” Goethening muxolifi bunday ehtirosli so`zlar shalolasiga munosib javob qaytarish uchun o`zini tiyib turishi mushkul bo`lganligini tushunish mumkin. Shu tufayli sud jarayonida ikki advokat ham “qarshi tomonni haqoratlovchi nomunosib so`zlar, nutq uslubiga ko`ra nafaqat hozir bo`lganlar g`ashiga tegadigan, balki jamoa xulqigazid iboralar uchun” jiddiy ogohlantirish olganlar.

Xayriyatki, bu tanbeh yosh himoyachiga ta`sir etib, uning nutq uslubi o`zgarib, hamkasblarinikiga o`xshash shaklni olgan. Goethening baxtiga uning iqtidorli yordamchisi nutqlarini barokko davri jimjimador uslubida ko`chirib borgan.

Goethe advokatlik kasbiga yuqori baho bergan: **”Adolatli sud ishidagi qat`iyatli advokat va yulduzli osmon ostidagi uquvli matematik – har ikkisi bab-baravar Tangriga o`xshashdir”.**

Goetheni qanday qilib bo`lsa ham huquqshunos qilishga qaror qilgan otasi uni 1772 – yil may oyi o`rtalarida Frankfurt yaqinidagi Veslar Shaharchasidagi Imperiya sud palatasiga tajriba orttiruvchi sifatida joylashtirgan. O`sha davrda Kassatsiya palatasigao`xshash bu oliy maqom sud idorasi eng befoyda adlya muassasasi hisoblangan. Agar otasining Goethega sud faoliyatiga salbiy munosabat tug`dirish niyati bo`lsa, u bundanda yaxshiroq yo`l tutmasdi. Bu sud idorasida o`n olti ming ish hal etilishini kutib yotardi. Ayni vaqtda bu yerda poraxo`rlik avjiga chiqqandi.

Goethe uch oy tajriba orttirgandan so`ng Frankfurtga qaytib kelib, advokatlik amaliyotini davom ettirgan va bir necha sud jarayonida ishtirok etgan. Ammo bu joyda uning butun o`y-hayolini adabiy faoliyat qamrab olgan.Ijodida birinchi o`rinda “Gyots fon Berlixengen” turgan bo`lsa-da , “Prometey”, “Faust”asarlarining rejasi bilan ham band bo`lgan.

Ayrim sud jarayonlari uning xotirasida ehtimol qalbida ham chuqur iz qoldirgan. Jumladan 1771 – 1772 – yilllarda Frankfurtda farzandini o`ldirishda ayblanayotgan xizmatkor

ayol Syuzanna Margarita Brandning katta shov shuvga sabab boʻlgan sud jarayoning guvohi boʻlgan. Savdo sotiq bilan shugʻullanuvchi bir kimsa bu xizmatkorni mast qilib, nomusiga tekkan. Baxtsiz ona sudda “noqonuniy” farzand koʻrib, sharmandaboʻlish va odamlar gap – soʻziga duchorlikdan qutulish uchun shayton vasvasasi taʼsirida bolas joniga qasd qilganligini ochiq tan olgan. 24 yoshli jinoyatchi Frankfurt qamoqxonasida oldidagi maydonda odamlar koʻz oʻngida qatl etilgan.

Margarita:

“Xaloyiq yuradi qatlgoh tomon
Kattakon maydonga sigʻmas olomon.
Men uchun chalinar soʻngi qoʻngʻiroq,
Jallod boshim uzra sindirar tayoq.
Choʻkaman, tegadi boshim kundaga,
Daxshat ichra boqar yigʻilgan odam
Mendek mahkum boʻlgan osiy bandaga.

Koʻzlarida qoʻrquv goʻyo hayolda
Ularning boshiga tushmoqda bolta”.

Faust:

“Oʻlsam boʻlmasmidi bu kunni koʻrmay”.

Margarita:

“Sening hukmingdaman, tangrim hoqonim”.

Erkin Vohidov tarjimai

Oʻsha vaqtda Germaniyada boshni tanadan judo qilishdan iborat oʻlim jazosi, odatda oʻz farzandini oʻldirganlar uchun (bu nikohda boʻlmasdan oʻz farzandini tugʻayotgan paytda yoki tuqqandan keyin darhol oʻldirganlarga taalluqli edi)

Barcha buyuk asarlar singari, Goethening „Faust” i ham falsafiy hikmatlarga boydir. Bu behuda nazariyaparastlik bilan jonli turfa rang hayot oʻrtasidagi nomuvofiqlikhaqidagi mashxur taʼrifga ham taalluqlidir:

„Nazariya - quruq ogʻochdir,

Ammo yashnar hayot daraxti”.

Doimo barhayot „ hayot daraxti” falsafasi tarixiy, madaniy manbaalarga g`oyat ehtiyotkorlik bilan, tarif joiz bo`lsa, goethecha munosabarda bo`lishni taqazo etadi. Goethening ijodi Kipling g`oyasi asossizligini ochiq – ravshan isbotlaydi. „Goethening Sharq falsafasiga yaqinligi mening yo`limni yoritib turdi, ruhimga madad bo`ldi”, - deb yozgan edi Erkin Vohidov.

Buyuk nemis shoiri Sharq madaniyatini, xususan Sharq mumtoz adabiyotini juda yaxshi bilgan. Xususan, u Xofiz she`riyatiga ta`zim qilgan, o`zi unga shogird tushishga tayyorligini bildirgan. „Faust”dagi bir lavha fikrimizni yaqqol isbotlaydi. Chunonchi, Faust xuddi sharq dostonlari qahramonlaridan Farhoddek zamin qaridagi ko`zguda tengsiz bir malak suratini ko`rib, o`n to`rt yashar sohibjamol Margaritaga ishq tushadi. Shundan so`ng u quyidagicha she`riy parchani yozib, sohibjamol Margaritani tariflaydi.

„Yoyilmay, taralmay ul tutam bulut
Ohista Sharq tomon uchib ketmoqda.

Men hayrat ichida unga boqurman:

Ana shu yumaloq shaklidan asta

Boshqa ko`rinishga o`tdi .

U turli suvratlar

Qarshingda qilur namoyon.

Rostmi bu ko`rganim?Nurga yo`g`rilgan

Yuksak cho`qqi uzra bo`ladi paydo

Ma`budlar kabi go`zal bir ayol”.

Erkin Vohidov tarjimasi.

Buyuklardan kimdir, xikmatli so`zlar – bu yaxshi tahrir qilingan roman, degan ekan.

Hali yana yuz yillar kitobxonlarni hayratga soladigan yuzlab ixcham, oqilona fikrlar Goethening qalamiga mansubligi bilan e`tiboringizni tortadi. 1885 – yildayoq Peterburgda Goethening mo`jazgina „ Nasrdagi xikmatlar” I bosilib chiqqan edi. 1903 – yilda esa Peterburgda „V. Goethe. Tanlangan xikmatli so`zlar va dono fikrlar”deb nomlangan kitob ingliz tilidan tarjima qilingandi. „Buyuklarning ulug` fikrlari “deb nomlangan uch jildlik to`plamga Goethening yigirmadan ortiq xiklatli so`zlari joy olgan. E. Boroxovning xikmatli so`zlar qomusida Goethening yuzdan ortiq xikmatli so`zlari keltiriladi. T.S. Aleksandrovaning „ Goethedan. Xikmatli so`zlar. Iqtiboslar”. Kitobida Goethening chuqur ma`noli iboralari ancha to`liq berilgan. Kitobda Goethening badiiy asarlaridan, ilmiy ishlari va publitsistikasidan saralab olingan to`rt yuzga yaqin hikmatli so`zlar, adabiy iqtiboslar jamlangan. Eng asosiysi, nemis

soʻzlarining ruscha muqobillari berilgan, baʼzi oʻrinlarda ularning kelib chiqishi va qoʻllanilishi izohlanadi.

Hikmatli, dono fikrlar inson aqlini charxlashi, undagi fikrlashni yanada aniqlashtirishi va tiniqlashtirishi isbot topgan haqiqatdir. Bunday zakovat xazinasidan doimo bahramand boʻlib turish hayotda izlanishni oʻziga shior qilgan zamondoshlarimiz uchun uning hikmatlari juda foydalidir. `

* * *

Modomiki aqlli javob berishlarini xohlar ekansan – aqlli savol ber.

* * *

Inson erishishi mumkin boʻlgan oliy nuqta – bu hayratdir.

* * *

Haqiqatni doimo takrorlab turish zarur, chunki bizga adashishni har doim eslatib turishadi.

* * *

Oʻzingdan quvonishni hohlar ekansan, dunyoning qadriga yet.

* * *

Oʻzini sevimli deb his etish kuchning oʻzidan koʻra katta kuch baxsh etadi.

* * *

Kimki izlanar ekan adashishga mahkum.

Har qanday oqilona fikr kimningdir miyasiga kelgan, ana shunday fikrga yana bir marta kelishga harakat qilish zarur.

Dinning say – harakatlari bizni muqarrar yuz beradigan narsa bilan murosa qilishga qaratilgan, har bir din bu natijaga erishishga oʻziga hos yoʻl bilan intikadi.

* * *

Mumtozlik – bu sogʻlomlik, romantiklik – bu bemorlik.

* * *

Hayot garchi bir lahzalik bo`lsa ham – burch.

* * *

Bilishning o`zi kifoya emas, bilganingni qo`llay bilish ham kerak.

* * *

Ijodkorni tushinish uchun – uning mamlakati qonunlarini o`rganish kerak.

* * *

Haqiqat bir – biriga zid fikrlar o`rtasida yotadi deyishadi.

* * *

Nazariya quruq og`ochdir do`stim, lekin yashnar hayot daraxti.

* * *

Kimki boshqa tillarni bilmas ekan, o`z tili haqida ham tasavvurga ega bo`lmaydi.

* * *

Shoirni tushinish uchun uning yurtiga borish zarur.

Haqiqiy erkinlik faqat qonunda bo`lishi mumkin.

* * *

O`z burchingni bajarishga harakat qil, ana shunda qalbing tubida nima borligini darhol anglaysan.

Qonun qudratli, biroq ehtiyoj hukmronligi yanada kuchliroqdir.

* * *

Jazolashga qodir bo`lmagan sudya oxir – oqibatda jinoyatga sherik bo`ladi.

* * *

Bekamu ko`st yashamoq uchun to`qqizta qoidaga rioya qilish zarur:

- ishdan zavqlanish uchun, yetarlicha sog`lik bo`lishi

- o`z ehtiyojlarini qondirish uchun, boylik bo`lishi
- qiyinchiliklarga qarshi kurashish uchun, kuch – quvvat bo`lishi
- gunohlarni tan olish , ular uchun tavba – tazarru qilish uchun, royish bo`lishi
- Mehnat qilish uchun ,sabr – toqat bo`lishi
- Yaqinlaringdagi ezgulikni ko`rish uchun, rahm – shafqat bo`lishi
- Boshqalarga yordam berish uchun, muhabbat bo`lishi
- Xudoning borligiga ishonish uchun, e`tiqod bo`lishi
- Kelajak oldidagi qo`rquvni yengish uchun, umid bo`lishi kerak.

* * *

II.3 G`arbni hech qachon Sharqdan ajratish mumkin emas

Goetheni birgina nemis adabiyotining buyuk mumtoz vakiligina emas, balki umuminsoniy adabiyotningham eng yorqin timsoli deb haqli ravishda e`tirof etishadi. Uning durdona asarlaridan biri “G`arbu Sharq devoni” ham o`rin olgani buning yorqin dalilidir.

Ilk bor 1819 – yilda nashr etilgan bu asar muallif tomonidan dastavval “Devon” deb nomlangan. So`ng 1827 – yildagi ikkinchi kengaytirilgan nashti muqovasida “G`arbu Sharqdevoni yoxud mudom Sharqqa mos keluvchinemis she`rlari to`plami”deb qayd etilgan. Goethe “Devon” ustida ishlashni davom ettirar ekan, uning nomlari bot – bot o`zgarib turgan. Nihoyat, takomillashtirilgan oxirgi- o`ninchi nashriga ijodkor tomonidan “G`arbu Sharq devoni “. O`n ikki kitob. “G`arbu Sharq devonining eng yaxshi nusxasiga maqolalar va izohlar”, deb tugal nomi berilgan.

Devonning bosh qahramoni – sayyoh Mashriqni ziyorat qilish maqsadida yo`lga chiqadi. Bu asar bilan tanishar ekanmiz, Goetheni Sharq, xususan uning tarixi, madaniyati, dinlari, ayniqsa adabiyoti bilimdoni ekanligiga to`liq ishonch hosil qilamiz.

Goethe Sharqqa yoshligidan qiziqib kelgan. U Sharq xalqlari og`zaki ijodi, turli rivoyatlari haqidagi ko`pgina kitoblarni qunt bilan mutollaa qilgan.

Ular orasida Firdavsiy, Farididdin Attor, Nizomiy, Sadiy, hofiz Jomiy asarlari bo`lgan. Goethe “G`arbu Sharq devoni ustida ish boshlagan. 1814- yilda Germaniyada Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek asarlari ham nemis tiliga tarjima qilinib nashr etilgan edi. Bu jahon madaniyati va adabiyoti rivojlanishiga kuchli ta`sir ko`rsatgan. Umuman, Goethe`G`arbu Sharq devoni”ni yaratishga ham Shaeq she`riyatidan ilhomlanib kirishgan.

Goethening Sharqqa oid bilimlarini kengaytirishdatarixchi I. Xammerning olti jildli “Sharq xazinalari” nomli asari katta ahamiyat kasb etgan. Goethe faqatgina Sharqshunos olim

bo`libgina qolmasdan, Sharq she`riyati tarjimoni ham bo`lgan. Jumladan, u Hofizning she`rlarini tarjima qilgan. Goethega ayniqsa, uning “Fors mamlakati nafis odob san`ati tarixi” asari kuchli ta`sir qilgan. Shu bilan birga Goethe Prussiyaning Istanbuldagi elchisibo`lgan baron Fon Disning Sharqshunoslikka doir ilmiy ishlarini ham o`rgangan.

Umuman, Goethe o`z davrida chop etilgan Sharq haqidagi deyarli barcha ma`lumotlarni yiqqan. Ular orasida zardushtiylilik, uning muqaddas kitobi “Avesto”, ko`hna arab she`riyatining namunasi “Moallakat”, shuningdek , Marko Polo , Vale Olariyning “Sayohatnoma”lari ham bo`lgan. Ingliz Sharqshunosi G. Bromsning guvohlik berishicha Goethe sharqshunoslar, sayohatchilar va tarjimonlarning Sharq tarixi, madaniyati va adabiyotiga taalluqli 48ta kitobni o`rganib chiqqan.

Sharqshunoslardan Lorsbax, Kozegarten Fon Dis Goethega arab va fors tillarini o`rganishda yordam berganlar. Adib hatto arabcha xattotlik sir-asrorlarini ham egallagan. U islomni, payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v) hayoti va faoliyatini, Qur`oni Karim va Hadisi shariflarni hamda tasavvufni o`rgangan. Goetheni Qur`oni Karimdan 10 ta surani nemis tiliga qilgan tarjima nusxalari saqlanib qolgan. Adibning o`z e`tirofiga ko`ra: “Qur`oni Karim – bu ibrat va ko`ngil ochish uchun o`qiladigan, odamlar qo`li bilan yozilgan kitob emas, balki ilohiy bitiklar va hukmlardir”. Uning “Muhammad surasi” She`ri ham bor.Goethe “Muhammad” dramasi ustida ham ish olib borgan.

Goethe Sharq tarixi, madaniyati va adabiyotiga alohida havas bilan qaragan. U Xammer va Fon Dis asarlari bilan tanishayotganda:” Hamma joyda Sharqning toza havosidan dimog`im chog` bo`lardi” , - degan.

Ma`lumki bu davrda G`arbda Yevropa markazchilik (ovropasentrizm)g`oyalari kuchli bo`lgan. Sharq xalqlari tarixi, madaniyatiga mensimay beoisand qaralgan. Goethe esa jahonning bu madaniy mintaqasiga ta`zim bajo keltiradi:

“E`tirof et, ekan ulkanroq
Sharq shoiri g`arblikdan, biroq
Teng ekanmiz bir hisda faqat,
Bir xil ekan bizdagi nafrat”.

Sadriddin Salim Buxoriy tarjimasi

Bu e`tirofni Goethening insonparvarlik va adiblik jasorati deyish mumkin.

Shoir e`tiroficha, u “otashin muhabbat sevgisi” – “Layli va Majnun”, sharqshunos Mihayelsning “Arab sarfu naxvi”, Anketil Dyuperonning “Qadimgi forslarning diniy urf

odatlarini”asari, “Kalila va dimna” masallari, Freytakning arab qo`shiq-lari bilan tanish bo`lgan.U taniqli sharqshunoslar Silvestr de Sasi, Lorebax bilan tez- tez muloqotda bo`lgan.

Goethe o`z devoni ustida ish olib borar ekan noshiri I.F. Kottega yozgan maktubida: “Mening niyatim G`arb va Sharqni, o`tmish bilan hozirgi davrni, forscha bilan nemischaga aloqador narsalarni zavq- shavq bilan bir – biriga bog`lash hamda ularning urf odatlari , fikrlash taxlitini o`zaro bir- biriga bog`liq holda olib qarash , birini ikkinchisi orqali tushunishdan iborat”,- deb alohida qayd etgan.

Buyuk alloma Sharqning jahon madaniyatini boyitadigan fazilatlarini ochib berishga astoydil intilgan. Haqiqatan ham, “Devon”da bu ikki dunyo xalqlari ichki olami, xulq- atvorlari, turmush tarzlari bir-biriga singib ketgandek gavdalanadi.

Asarning “Devon” deb nomlanishi ham bejiz emas.

“G`arbu Sharq “devoni 12 bob – “Mug`anniynoma”, “Ishqnoma”, “Hofiznoma”, “Tafakkurnoma”, “Ranjnoma”, “Hikmatnoma”, “Temurnoma”, “Zulayhonoma”, “Soqiynoma”, “Matalnoma”, “Forsiynoma”, va Xuldnoma daftarlaridan iborat.Boblar nomlanishidayoq muallif Sharq madaniyatini nechog`lik chuqur o`rganganligi yaqqol ko`rinib turibdi. Yanada e`tiborlisi shunda ediki Goethe “G`arbu Sharq” devonida “bulbul”, “fatvo”, “hur”, “mufti”, `tilsim” , “mirzo”, “darvesh” so`zlarini asliyatida qo`llagan. “Devon”ning birinchi daftari – “Mug`anniynoma” ning “Hijrat” she`ri bilan boshlanishi ramziy ma`noga ega. Ya`ni Goethe payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v) Makkadan Madinaga hijrat qilganidek, sharqona libosda “yosharish”, yangi “hayot” boshlash maqsadida hayolan G`arbdan Sharqqa”hijrat” qiladi.

“Devon”dagi “Zulayhonoma”da Sharqda mashxur “Yusuf va Zulayho” afsonasi inikosi his etiladi. Ma`lumki, “Yusuf va Zulayho” Firdavsiy, Jomiy, Nizomiy, Hofiz, Navoiy, Sa`diy, Rumi va boshqa ijodkorlar asarlarida u yoki bu tarzda talqin etilgan. Alisher Navoiy uni “Dostonlar ichida eng ulug`vori” deb atagan.

Goethega Qur`oni Karimning “Yusuf “surasidagi Yusuf va Zulayho to`g`risidagi rivoyat kuchli ta`sir ko`rsatgan.Adib Zulayho timsolida hayotga, tabiatga, go`zallikka, kelajakka, Tangriga bo`lgan muhabbatni kuylagan. U o`z asarida afsona tafsilotlariga to`xtalib o`tirmagan. “Devon” otashin sevgi madhidir. Shu sababli uning birinchi qismi “Ishqnoma”, ikkinchisi esa “Zulayhonoma” deb nomlangan.

Goethe 1814- yilda Hofiz She`roziyning G. Purgshtal tarjimasidagi she`rlari bilan tanishib, fors shoirining insonparvarlik tuyg`ulari , go`zallikka intilishi, insoniy sevgi madh etilgan g`azallaridan g`oyat zavqlangan: “Ilgari ham jurnallarda qisman chop etilgan Hofiz g`azallari bilan tanishishga muyassar bo`lgan edim, - deb yozadi Goethe. Lekin Hofiz “Devon”ini o`qib, bu buyuk insonga tamom o`zgacha bir ixlos his etdim. Chunki men bu bunyodkor oldida hech kimman”. Nemis shiri o`z “Devon”ida Hofiz Sheroziyni komil inson, o`z

Piri deb biladi. Uning rahnamoligida ma'rifatli bo'lishga, yetuklikka intiladi. Shuning uchun "G'arbu Sharq devonida" ham Goethev Hofiz va boshqa Sharq shoirlari an'analarini davom ettirib, muhabbat mavzusiga alohida o'rin ajratgan.

Ta'bir joiz bo'lsa, Goethening "Devon"i umuminsoniy ma'naviyat sintezi, Sharq she'riyatining o'ziga xos g'arbona in'ikosidir. U G'arb bilan Sharq o'rtasidagi har qanday to'siqni inkor etgan, G'arbni Sharqdan ajratib bo'lmaydi, deb hisoblagan. Dahoning bu so'zlaridan shuni anglash mumkinki u islom dinidan ham yetarlicha habardor bo'lgan. Chunki Qur'oni Karimning Baqara surasi 115- oyatida shunday deyiladi. "Mashriqu Mag'rib Allohnikidir, qayoqqa qarasangiz, Allohning yuzi o'sha yerda".

II.4 Goethe va islom risolasining tarjimasi haqida

Qadimdan barcha zamonlarda, turli makonlarda, insonlarning tinch- totuvligi, elatlar xalqlar birodarligi, diniy bag'rikenglik g'oyalarini qalblarining ilohiy tumori, muqaddas mayig'I sifatida baland ko'tarib kelgan buyuk shaxslar bo'lgan. Bashariyatning ana shunday farzandlaridan biri olmon mutaffakiri betakror Y.V. Goethedir. "Goethe va Islom" risolasining muallifi, olima Katarina Mommsen xonimning Goethening o'ziga xos ochilmagan qirralarini xolislik bilan yoritilganligi bizning e'tiborimizni tortadi. Ushbu mo'jaz risolada allomaning diniy bag'ri kenglikka bag'ishlangan o'ziga xos dunyoqarashlari, fikr mulohazalari o'z ifodasini topgan. Asardagi keng bag'irlilikka bag'ishlangan teran fikrlar dolzarbligi zamonamiz allomalarini ham befarq qoldirmadi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari tashabbusi bilan risolaning tarjimasi ilk bor Islom.uz portalida keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan bo'lsa, O'zbekiston Qahramoni xalqimizning sevimli shoiri Goethening "Faust" asarini o'zbek tiliga ilk bora mohirona tarjima qilgan Erkin Vohidov ushbu risolaga so'z boshi yozgan.

E'lon qilingan tarjima o'zbek o'quvchilari qalbidan chuqur joy egallaganligining isbotini biz bir qator davriy matbuotda davomli tarzda chiqayotgan e'tiroflar orqali kuzatishimiz mumkin. Quyida ushbu e'tiroflardan namunalar keltirish mumkin. Masalan zamonamiz Navoiysi Erkin Vohidov e'tirofi.

Qalbi ummon daho

Buyuklarning buyukligi, avvalo zamon tafakkuridan ilgarilab ketishlarida, milliy, irqiy, diniy mansubligidan yuksak turganlarida namoyon bo'ladi.

Sa'diy, Xayyom, Hofiz, Rumi, Navoiy sharqning ana shunday daholaridir. G'arbda esa jahon e'tirof etgan buyuk olmon shoiri Yohann Volfgang Goethe siymosi baland cho'qqilardan biri bo'lib turadi.

So`ngi uch asr mobaynida Yevropa xalqlarining ruhiy – g`oyaviy yo`lchi yulduziga aylangan ulug` mutaffakkir serqirra olim, betakror shoir qoldirgan badiiy meros, falsafiy, ilmiy va diniy g`oyalar ko`plab olimu fozillar diqqatini o`ziga jalb etib kelmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda Goethe ijodini taxlil etishga inrilish kuchaydi.

Bu bejiz emas, albatta. Zamonamiz Sharq va G`arb o`rtasida hamkorlikni e`tiqoddagi bag`rikenglikni dolzarb masala qilib qo`ydi. Qattol mutaassiblik jaholat qarshisida jahon xalqlarining birlashuvi tarixiy zaruratga aylandi. Islom ma`rifatini anglash, islomni ezgulik dini deb bilish va ishonishda Goethe g`arbliklarga bugun ham yorqin mayoq bo`lib nur sochayotir.

Buyuk shoirning Sharq she`riyatiga nisbatan katta hurmati olamga mashxurdir. Uning “Garbu Sharq devoni dunyo tillariga tarjima qilingan. Lekin Goetheni Islom dini asoslarini qiziqib o`rgangani, maqola va maktublarida “Qur`oni Karim” oyatlaridan ko`chirmalar keltirgani, yoshlik yillarida payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v) ga bag`ishlab sahna asari yozishga kirishgani, tugallanmagan bu asar parchalarining saqlanib qolgani hammaga ham ma`lum emas. Mashxur olmon olimasi, fan doktori, professor Katarina Mommsenning “Goethe va Islom” risolasi ana shu mavzuga bag`ishlangan qimmatli manba hisoblanadi. Ushbu risola olimaning 1964- yilda Shtutgard hududiy ilmiy jamiyati yig`ilishida, so`ngra Berlin, Qohira, Iskandariyada qilgan ma`ruzalarining jamlanmasidir. Uni taniqli olmonshunos olim, profesor Muxtorxon Umarxo`jayev o`z hamkasbi Ibrohimjon Jabborov bilan hamkorlikda o`zbek tiliga o`girdilar. Bu katta ma`rifiy ahamiyatga ega bo`lgan xayrli ishdir. Ma`lumki, O`zbekiston va Olmoniya munosabatlari har sohada muntazam va izchil rivojlanmoqda. Ilmiy, madaniy aloqalar bu do`stona yaqinlikni mustahkamlovchi omildir. Fahrlanib aytsak bo`ladiki, mamlakatimizda keyingi yillarda olmon adabiyotini, xususan Goethe hayoti va ijodini o`rganish, targ`ib etish bo`yicha talay ishlar amalga oshirildi. Sadriddin Salim Buxoriy tarjimasida “G`arbu Sharq devoni”, Yanglishoy Egamova tarjimasida Goethening nasriy asarlari, Posha Ali Usmon tarjimasida “Faustning e`lon qilingani atoqli huquqshunos va jamoat arbobi Akmal Saidovning bu ulug` alloma faoliyatiga bag`ishlangan qator risolalari fikrimizning dalilidir.

Sizning e`tiboringizga mamnuniyat bilan taqdim etayotganimiz ushbu ma`ruza va tarjimonlar ilova qilgan sharhlar o`zbek Goetheshunosligiga hissa bo`lib qo`shiladi.

Goethe va Islom

Goethening islom dini va uning asoschisi Muhammad alayhissalomga munosabatining shunchalik e`tibor tortar qirralari borki, ularni atroflicha, chuqur o`rganish maqsadga muvofiqdir. Buyuk shoir Muhammad payg`ambarga atab ajoyib qasida bitdi., 70 yoshida esa jamoatchilik oldida tan olib “”Qur`on payg`ambarga to`la nozil qilingan muqaddas kechani ehtirom ila

bayram qilib nishonlash niyatim bor, - deb yozadi. Avvalambor bunday ehtiromning dalili sifatida Goethening shoh asari “Faust” dramasi bilan bir qatorda shoirlik dahosining mahsuli boʻlmish “Gʻarbu Sharq devoni”ni attish zarur. Mazkur asarning bosilib chiqishi xususida muallif oʻz qoʻli bilan bitgan xabarnomada quyidagi hayratlantiruvchi jumla bor: “Muallif oʻzi musulmon boʻlsa kerak degan shubhalarni rad etish niyatim yoʻq”.

Islomga nisbatan bunday ijobiy munosabat sabablarini izlaganda, dastlab Goethening barcha diniy hodisalarga katta etibor bilan qaraganini yodda tutish lozim. U haqida soʻz yuritganda, uning islomga boʻlgan munosabati avval boshdanoq ilgʻor marifatparvarlik ruhi bilan sugʻorilganligini qayd etish zarur. Muhammad va islom diniga nisbatan Goethe koʻproq oʻz shaxsiyati nuqtai nazarida turdi. Shuning natijasida islom haqida u bildirgan fikrlar oʻzigacha Olmoniyada mavjud boʻlgan barcha gʻayri odatiy, tor fikr va qarashlardan oʻzib ketdi. Islomga nisbatan ijobiy munosabatni Goethe oʻzining shaxsiy eʼtiqodi va tafakkuri asosiy diniy taʼlimotlar bilan mos boʻlgan paytda kashf etdi. Bunday holat unda chuqur diniy bagʻrikenglik xayrixohlikni uygʻotdi. Natijada, shoir erkin va oshkora jasorat ohangida diniy bagʻrikenglik bilan sugʻorilgan ulugʻvor asarlar yaratishga moyassar boʻldi.

Islom dini nimasi bilan shoirni bunchalik rom etdi, bu dinning nimasi unga maftunkor boʻlib tuyuldi? Goetheda bolaligidanoq Sharq olamiga nisbatan joʻshqin muhabbat uygʻongan edi. Imkon tugʻildi deguncha u Sharq toʻgʻrisida maʼlumotlar olishga harakat qilar edi.

Goethening islom bilan astoydil shugʻullanganligining isboti sifatida, bizgacha yetib kelgan hujjatlarning birinchisi Goethening Xerderga yozgan maktubidan oʻrin olgan. Maktubning xotimasida: Men Musoning Qurʼonda keltirilgan duosidek duo qilmoqchiman: “Robbim koʻksimni keng qil”, - degan jumla bitilgan. Bu esa Toha surasining 25- oyatidir. Bunday iqtibosdan qanday maqsad – muddao koʻzlangani mazkur suraning davomi oʻqilsa tushunarliroq boʻladi. Zero, Goethe ayni oʻsha paytda koʻchirib olgan Quron iqtiboslari orasida ularning quyidagi davomi bitilgan”. “Robbim, koʻksimni keng qil. Ishimni oson qil. Tilimdagi tugunni yechgin” (26-27- oyatlar). Goethening Qurʼondan yozib olgan parchalari Muhammad alayhissalomning faoliyat tarziga hamda ning maʼlum bir xalq orasida tutgan mavqeiga taalluqliligi shoirning alohida qiziqishlarini ochib beradi. Mana Goethening Qurʼondan keltirgan yana bir parchasi (29-suradan) “Belgilar Alloh ixtiyoridadir, men esa faqatgina xabar yetkazuvchiman”.

Mazkur parcha orqali Goethening butun umri davomida Qurʼonga alohida mehr bilan qaragani isbotlangan. Shoir buni hatto 1819- yili yosh olimlardan biriga yoʻllagan maktubida ham iqtibosan keltirgan: “Alloh taolo Qurʼonda: Qaysi bir rasulni yuborgan boʻlsak, bayonqilib berishi uchun, oʻz qavmining tili ila yuborganmiz”(Ibrohim surasi , 4- oyat) degani ayni haqiqatdir.

Bizgacha saqlanib qolgan parchalar orasida eng mashxuri “Muhammad qo`shig`i”dir (dastlab Ali va Fotima dueti shaklida yozilgan). Goethe bu she`rni imkon qadar barcha adabiyotni o`qib o`rgangach , 1773- yilning bahorida yozgan edi:

Ey oshiq qalb, yuksalgin Yaratgan tomon!

Mening Tangrim bo`l sen ey xudoyim.

Sensan o`sha nozil etgan yulduzlar, oyu quyosh,

Osmonu zamin va men nechun Senga egmayin bosh?!

Goethega xos xususiyatlardan yana biri – u mazkur ta`limotga suyanib taqdirning unga bergan og`ir zarbalaridan qaddini rostlab olar edi.

1792- yil Fransiya yurt hukmdori xohishiga binoan harbiy yurishda ishtirok etgan Goethe dam-badam xavf- xatarga duch kelaveradi.”Fransiya yurishi asarida adib yuqoridagi kabi vaziyatlardagi kayfiyati haqida yozgan edi: “Xavf- xatar kuchaydi deguncha menda so`zsiz taqdirga tan berish hissi paydo bo`lar edi va kishilar o`ta havfli faoliyatda bo`lgan pallada mazkur ishonch e`tiqod bilan toblanib va qo`shimcha quvvatlanib qolgandek his qilardilar. Muhammad dini bunga eng yaxshi dalillarni beradi.”.

1820- yili Goethening kelini og`ir betob bo`lib qolganda, shoir o`z do`stlaridan biriga yozgan maktubida shunday deyilgan edi: Islomdan najot izlashdan boshqa biron narsa deyishga men ojizman”.

Gersog Karl Avgust to`satdan vafot etganida, hamsuhbati Ekkermannnga chuqur xo`rsinib shunday degan: Nimani maqbul etish Allohga hosdir, biz bandalarga esa U boshimizga solgan narsani tortishdan boshqa chora yo`qdir.

Kasler Fon Myullerga esa bunday degan:”Biz Alloh belgilab berganicha umr ko`ramiz”. Yana Albrext Dyurerning hikmatli so`zlaridan biriga tayanib adib quyidagilarni yozib qoldirgan:”Taqdiri azal nimadur? Javob: “Hech kim taqdirini qayta tuza olmaydi va taqdiridan ayro yo`l tuta olmaydi”.

Ekkermannning suhbatlar to`plamida shoirning islom dini haqidagi eng mukammal maqtoqlarini uchratamiz. U musulmlarga dialektikadan saboq beradi. Saboqlardan birida bunday deyilgan: Sizlar bularning barchasi o`zaro bog`liqligini tushinishingiz uchun men kabi ellik yil mobaynida dinlar tarixini o`rgangan bo`lishingiz shart. Shunisi nihoyatda e`tiborliki, Muhammad dinidagilar tarbiya jarayonini qaysi saboqlardan boshlashni biladilar. Dinning poydevori sifatidaularning o`z yosh avlodiga eng oldin singdiradigan e`tiqodlariga ko`ra, hech bir insonga barcha voqea- hodisalarni boshqarib turuvchi Tangri belgilab qo`yganidan boshqa hech narsa uchramaydi. Shu tarzda yoshlar butun umri davomida xotirjam va zarur narsalarning hammasi bilan ta`minlangan bo`ladilar va boshqa biror narsaga ehtiyoj sezmaydilar ham”

Goethe ko`p yillar davomida “Qur`on bilan mashg`ul bo`lgan va bundan biroz oldinroq vaymarlik askarlar Ispaniyadagi urishdan qaytishida bir arabiy majmuaning qo`lyozma varag`ini keltirib bergan edi. Shoir Yena universitetining sharqshunosi Lorsbaxdan buni o`zi uchun tarjima qilishini buyurdi. Qo`lyozma “Quron”ning so`nggi, 114- surasi edi. Shoir bu nafis varaqdan ko`chirma nusxa olishga harakat qildi. Bu urinishlar tufayli uning dastxatidan nusxalar saqlanib qolgan.

Shundan ko`p o`tmay “G`arbu Sharq devoni”ning dastlabki she`rlari yaratildi. Bu asarning butun borlig`i islom muhiti va fikrlari olami bilan yo`g`rilgandir. Endilikda bizga shu narsa ayonki, bu asar Goethening islomga nisbatan yoshlik yillaridan boshlab shakllanib kelgan ijobiy munosabatisiz dunyoga kelmagan bo`lardir. Goethe payg`ambarning o`zi so`zlagandek qilib ta`lif etgan she`rlarni esga olishimiz mumkin. Yoki ushbu iboralarni yodga tushirsak. “Muqaddas Qur`on”, Qur`onning muqaddas da`vati “ yoki quyidagi she`rni yodga olishni o`zi kifoya qiladi.

Qur`on abadiymi? So`raysiz , nechun
Bundoq savol asli yo`qdir men uchun ...
U – kitoblar kitobi ekani aniq,
”Muslima burchlari” beshak men uchun.

“G`arbu Sharq devoni” Goethening Qur`oni Karim bilan va Muhammad sollallohu alayhi vasallamning tarjimai holi bilan yana ko`plab mashg`ul bo`lganining bevosita va kuchli ta`siri ostida yozilgan.

Mashriq Alloh dandir, Mag`rib ham Undan,
Shimol ham janub ham tayindir shundan.
Barcha maloiklar o`ngu so`lida,
Sakinat topajak Uning qo`lidan.

“Allohning bir talay sifat va ismlari borligi haqidagi tasavvur nimasi bilan Goethe uchun jozibali tuyuldi ekan? “ degan savolgauning Ekkermann bilan qurgan bir suhbatini ravshanlik kiritadi. Bu suhbarda shoir qayta – qayta Allohning yuzta ismi haqida so`z yurita boshlaydi. Shu safar ham u islom bilan o`z ruhoniyligi o`rtasida bir qadar o`xshashlik topganini tan olgan edi. O`limidan bir yil oldin Goethe Ekkermannga bunday deydi:”Bolajonim, biz o`zi ilohiyot g`oyasi to`g`risida nimani bilamiz va bizning mahdudona tushunchalarimizU yuksak Zot xususidanimallarni anglata oladi? U Zotni oddiy bir turk misoli 100 ism bilan atashni istaganimda edi, taassufki juda qisqa o`ylagan b`lib chiqardimva bunchalik cheksiz fazilatlar bilan qiyoslab

ko`rilsa, yana ham hech narsa aytmagan bo`lardim” deb Yaratganning nomini juda yuksak darajada ulug`laydi.

Qolgan barcha ichki kechinmalarini quyidagi she`r orqali ifoda etadi.

Nomlaring ta`midan olganda lazzat,
Ruhim sokinlikda orom topadi.
Yaxshiliklar hamda muhabbat ila
Tangrining o`zini namoyish etar.

Keksayganida Goethe she`riyatining ayni yuksak vazifalarini oshkor ifoda etgandan ko`ra ularni pardalab ketishni afzal bilgan. Shunga muvofiq, “G`arbu Sharq devoni”ning bir o`rnida “Muhammad”bobining muhim ilovasi sifatida qo`shib qo`yilmog`i lozim deb topilgan bir jumla bor: “She`riyatda insoniyatning muqaddas narsalari avaylab saqlab qolinadi!”. “Muhammad” bobida islom asoschisiga nisbatan Goethening qarigan chog`ida ham hech bir jihatdan susaymagan yuksak ehtirom bilan peshvoz turganini ko`rish mumkin. Goethe xayrixohlik ko`rsatgan islom dinining asosiy ruknlari haqida gap borganda “Devon”ning nasriy qismida ham yuqoridagi kabi fikrlar mavjudligini qayd etmoq zarur. Masalan, u Xudoning vahdoniyati haqidagi ta`limotga qayta – qayta kuchli urg`u beradi. Shoir ko`pxudolilikni bartaraf etishda islomiy e`tiqodning buyuk xizmatini yuksak baholaydi. “Yolg`iz Xudoga ishonish ruhiyatga yuksak ta`sir o`tkazadi, chunki bunday ishonch insonga o`z ichki dunyosining birligini inkor etishni o`rgatadi” (Mahmud G`aznaviy bobi). “G`arbu Sharq devoni”bosilib chiqqanidan bir yil o`tgach Goethe ushbu satrlarni yozgan edi:”Muhammadning bu dini, rivoyatlari axloqi shunday bir she`riyatga imkon beradiki, go`yo bunday she`riyat men uchun atalgandek”. “Devonning nasriy qismidan bir iqtibos:”Allohning yagonaligi, Uning irodasiga bo`ysunish, payg`ambar orqali xabar – bularning barchasi e`tiqodimiz va tafakkur tarzimizga mos tushadi”. Bu uch asosiy nuqta Goethening islomga barcha qiziqishlarining markazida bo`lib kelgan. Mazkur da`vat etuvchi ohangda taqdim etilgan barcha qoidalar Goethening islom dinining asl qadrini elga anglatishga naqadar zo`r ishtiyoqmand bo`lganini ravshan ifodalab beradi. Shu o`rinda bayonimiz boshida Goethe aytgan so`zlarni keltirsak maqsadga muvofiq bo`lar edi. “Devon “ muallifi “o`zi musulmon emasmikan” degan shubhalarni inkor qilmagan edi.

Barchamizga ma`lumki Olima Katarina Mommsenning “Goethe va Islom” risolasi 2012 – yilda “Jahon adabiyoti jurnalida e`lon qilindi. Bu risola ko`pgina adabiyot ixlosmandlarini befarq qoldirmadi. Buning asosiy sababi shunda ediki, buyuk nemis dahosining shoir, olim, yozuvchi, dramaturg, davlat arbobi, advokat kabi qirralari hammamizga ma`mumu mashxur. Ammo uning diniy sohada qilgan ishlari va yoziqlari biz uchun ma`lum bo`lmagan. Goethedek

dahoning nafaqat ilmiy balki diniy sohadagi izlanishlari va avlodlarga qoldirgan buyuk ma`naviy ijodi faqatgina nemis xalqi uchungina emas balki, butun dunyo adabiyot ixlosmandlari uchun o`lmas merosdir. Tabiiyki ushbu risolani o`qigan barcha adabiyot ixlosmandlari Goethe musulmonmidi? degan hayolga boradilar.

Bugungi kunda jahonning hamma mamlakatlaridagi insonlar – ular qaysi dinga e`tiqod qilishlari yoki hech bir dinga e`tiqod qilmasliklaridan qat`i nazar, tarixiy, shu jumladan diniy merosga ham Goethe kabi hurmat bilan yondoshdanlarida „ karikaturalar mojarosi” kabi jiddiy ziddiyatlar ro`y bermas edi. Islom dini mohiyatini tushunmasdan uni terrorizm bilan bog`lashga behuda urinishlarga duch kelinmas edi.

Shu nuqtai nazardan Islomga munosabatni ham Goethedan o`rganish kerak. Betakror ijod sohibining asarlari, shu jumladan „ Faust” ham dinlararo, madaniyatlararo, millatlararo bag`rikenglik namunasidir. Ular Sharq va G`arb sivilizatsiyalarini uyg`unlashtirish maqsadlariga ham xizmat qilmoqda, deyish uchun hamma asoslar bor.

Taniqli adbiyotshunos va tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov juda to`ri ta`kidlaganidek, „Kishi doimiy ravishda ruhiy – ma`naviy ehtiyojlarni qondirib borishi, shu jihatni tarbiyalashga bel bog`lamog`i darkor. Bu ishda unga o`zidan ko`ra komilroq inson – Pir rahnamolik qiladi. Pir yoki Orif deb tasavvuf ahli aqli donishda yetuk, ma`rifat nuri bilan qalbi limmo – lim, pok niyat, pokiza ahloqli, zohir odamni nazarda tutganlar. Pir ko`ngil mahrami, hamdard, hammaslak kishi”.

Shu ma`noda buyuk nemis shoiri Islom dinini ruhni poklovchi, Sharq allomalarini esa o`ziga Pir, Orif deb bilgan.

Ixlos mezon

O`zMU tadqiqotchisi Alimurod Tojiyev esa quyidagi fikrlarni aytib o`tadi. Oddiy odamlarni qo`yavering, aksar hollarda buyuk shaxslar ham umrlarining ma`lum pallasida dillaridagi e`tiqodda qandaydir o`zgarish sodir bo`layotganini sezganlar. Shundaylardan biri buyuk olmon shoiri Yohann Volfgang Goethedir . “Jahon adabiyoti”jurnalining shu yilgi 1-sonida Katarina Mommsenning “Goethe va Islom” risolasi olmonshunos olimlar Muxtorxon Umarxo`jayev va Ibrohimjon Jabborovning bevosita aslyatdan tarjimasida e`lon qilindi. Albatta, mazkur risolaning olmon tilidano`girilgani uning ma`naviy – ma`rifiy qimmatini oshirgan.

O`zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov “Qalbi ummon daho” sarlavhali kirish so`zida mazkur tarjimani “Bu katta ma`rifiy ahamiyatga ega bo`lgan xayrli ishdir “deb baholagan. Goethening islom dini borasidagi falsafiy qarashlarini tahlil qilar ekan, K. Mommsen bir yoqlama fikr yuritmaydi, yani Goethe o`z dini qolib boshqa dinga moyil bo`lib qolgan deya hukm chiqarmaydi. Daho shoir ko`nglida o`n sakkiz yoshida paydo bo`lgan she`riy

ishtiboh 70 yoshdan oshganida o'z yechimini topadi. Vahdoniyat borasida shoirni bir umr qiynab, ta'qib etib kelgan barcha savollarga u mukammal javob topadi.

Televideniye orqali namoyish etiladigan yoshlarning “Zakovat” nomli ko'rsatuvlaridan birida Goethe hayotining aynan mana shu qirrasiga oid quydagi mazmunda bir savol berilgan edi: “Goethe islomni chuqur o'rganganidan keyin o'zida bir kichik o'zgarish yasadi va bu o'zgarish uning so'ngi nafasigacha saqlanib qoldi. U qanday o'zgarish edi?” Javob: “Goethe ilgari uxlash uchun yotgandaboshini qaysi tomonga qo'yishga aslo e'tibor bermas edi. Islomni o'rganganidan keyin u boshini faqat qibla tomonga qo'yib yota boshlagan. O'zga din yoki mazhabdagi o'ziga ma'qul biron jihatni o'rganib yoki o'zlashtirib o'z hayotida qo'llash har kimning ixtiyoridagi ish, albatta. Faqat u o'ziga ham, o'zgalarga ham zarar yetkazmasa, jamoatchilikning fikru o'yi, ishonch e'tiqodiga zid bo'lmasa bas. Hatto Pushkin ham o'zining “Fozilxonga” nomli she'rida: Sharq she'riyati quyosh kabi taftlidir, u shimol muzlarini bitta qo'ymay eritib yuborgusidir”, - deya iqror bo'ladi. O'zi uchun ko'p yangilik bergan o'zga tafakkurni e'zozlash, kerak bo'lsa, unga e'tiqod qilish chin insonoylik nishonasidir.

Ayniqsa, Goethening Qur'oni Karimning sura va oyatlaridan bevosita iqtibolar keltirib, ular asosida yuksak ma'rifiy qimmatga molik she'rlar ijod qilgani daho shoirning islom olamida yanada mahbubroq shaxsga aylanishida muhim omil bo'ldi. O'zbek kitobxonlarining bu olmon shoiri asarlarini o'zgacha shavq, o'zgacha mehr bilan mutolaa qilishining sabablaridan biri ham shunda.

K.Mommsen risolasining yana bir diqqatga sazovor joyi shundaki, unda muallif G'arbu Sharq adabiyoti, falsafasi va ilmu fanida nom qozongan, o'lmas ilmiy adabiy meroslar qoldirgan ko'plab tarixiy shaxslar nomini tilga olib, ularning islomga doir qarashlaridan ko'plab jonli misollar keltirgan. Goethening yaqindan va uzoqdan turib, bevosita yoki bilvosita mutafakkirlar bilan olib borgan muloqotlarining o'ziyoq butun bir davrni qamrab oluvchi adabiy aloqalar silsilasini yuzaga keltirgan. Pirovard natijada ularning hamfikir va yakdil bo'lib qolishlari zahirida olmon shoiri e'tiqod qilib kelgan islom falsafasi yotishini mana shu risoladan bilib olamiz. Shubhasiz, bunday murakkab va qutlug' mavzudagi asarni aslyatdan aniq tarjima qilgan mutarjimlarning mahoratiga tasanno aytamiz .

Kezi kelganda ko'p sonli mushtariylar mehrini qozonib kelayotgan “Jahon adabiyoti” jurnalining xizmatini ham e'tirof etish lozim. Unda “Falsafa, Madaniyat, San'at” rukni ostida jahon adabiyoti rivojiga hissa qo'shgan buyuk shaxslarning ijodlaridan namunalar muntazam berib borilmoqda. Bir necha yil muqaddamingliz yozuvchisi Bekfordning “Vatek” (“Xalifa Vosiq qissasi”) asari rus tilidan Amir Fayzulla tarjimasida e'lon qilingan edi. Marhum tarjimon Yo'ldosh Pardayev jahonga taniqli sharqshunos olimi Annamariye Shimmel ijodidan

namunalarni jurnalxonlar e'tiboriga havola etgandi. A. Shimmel xonim o'zining butun umrini islomshunoslikka bag'ishlagan fidoyi ijodkordir.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Zero, ilgari birgina rus tiliga qaram bo'lib qolgan tarjimonlarimiz endilikda jahon afkor ommasi bilan istalgan tilda bevosita bimalol muloqotda bo'lib, kitobxonlar ma'naviy dunyosini boyitmoqda.

Goethe musulmon bo'lganmidi?

Namangan davlat universiteti dotsentlari Saidumar saydaliyev va Zohidjon Sodiqovlar esa quydagilarni e'tirof etadilar. "Jahon adabiyoti" adabiy – badiiy, ijtimoiy – publisistik jurnalining 2012 - yil yanvar sonida mashxur olmon olimasi, fan doktori, professor Katarina Mommsen qalamiga mansub "Goethe va Islom" nomli risolaning yurtdoshlarimiz – taniqli olmonshunos olim, professor Muxtorxon Umarxo'jayev va u kishining hamkasbi Ibrohimjon Jabborov bilan hamkorlikda olmon tilidan o'zbek tiliga qilgan tarjimasi chop etildi.

Ma'lumki, islom va nasroniy dinlariga nisbatan Sharq va G'arib munosabatlarida turlicha mulohazalar, qarashlar fikirlar qarama qarshilik mavjud.

X. Erbelot 1720-yili Muhammad Alayhissalomni hayotini tasvirlovchi asarini e'lon qildi. Ushbu asar ta'sirida XVIII asr firansuz ma'rifatparvari, adib va aylasuf Muhammad Alayhssalomga bag'ishlangan tiragediya yozdi. U o'z asarida islomni, qur'onni ayniqsa, Muhammad Alayhssalom shaxsini ulug'lagan, u zotni „dunyoning uch buyuk qonunshunosidan biri” deb atagan.

Germaniyada Leybmis, Lessing va Herderlar islomga insonparvar va ma'rifatli ta'limot tarzida yondashib, xolisona baho berganlar.

Lessing „Kardanus” nomli asarida Qu'roni Karimni „Mukammal qoidalar mujassamlashgan asar” deb baholagan. Herder esa „Tarix falsafasiga doir g'oyalar” asarida Muhammad Alayhssalomga yakka xudo haqidagi ta'limotni hamda pokizalik, sadoqat va ezgulikni targ'ib qilgan zot sifatida yuksak baho bergan. Herder musulmonlar erishgan madaniyat darajasini ko'klarga ko'tarib maqtagan. Bu madaniy yuksalish nasroniylarning o'zboshimchalik va buzuqliklaridan, yovvoyilashib ketgan axloqidan yuqori turishini ta'kidlagan.

Tarjimaga so'z boshi yozgan O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov aytganidek, buyuklarning buyukligi, avvalo, zamon tafakkuridan ilgarib ketganlarida, milliy, irqiy, diniy mansublikdan yuksak turganlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham Goethe zamonasida islomni beg'aras va erkin ta'limot sifatida o'rganishiga intilish mavjud edi.

Goethening islomga boʻlgan munosabati avval boshdanoq ilgʻor maʼrifatparvarlik ruhi bilan sugʻorilgan edi. Shuning uchun ham bu unda gʻurur, diniy bagʻrikenglik, xayrixohlikni uygʻotdi.

Goethening Qurʼon ustida oʻtkazgan mashgʻulotlari jiddiy samara keltirdi, uni alohida bir asar yaratishga ilhomlantirdi. Shoir bu asariga „Muhammad” deb nom ham qoʻydi. Garchi rejalashtirilgan asar nashr etilmay qolgan boʻlsa - da, toʻplangan materiallar hozirgacha saqlanib qolgan. Asardan oʻrin olgan boblar sirasidagi „Muhammad qoʻshigʻi” kishi eʼtiborini tortadi.

U dastlab Ali va Fotima dueti shaklida yozilgan. Bu qoʻshiq shoirning Muhammad alayhissalom oʻbraziga boʻlgan qizgʻin munosabati va hurmatini ifodalaydi. U bashariyatning ruhiy yoʻlboshchisi va din – diyonat asoschisining fitratini buyuk oqim sifatida aks ettiradi. Bunday tashbeh shoirga oʻz qahramonini kichik irmoqlaadan boshlanib, ulkan daryolar bilan qoʻshilib buyuklashgach ummonlar kabi buyuk va qudratli zot, ramziy maʼnoda ifoda topgan Xudoga tomon intilayotgan shaxs timsolida tasvirlash imkonini bergan.

Islomning muqaddas kitobini bir umr qalban mutolaa qilgan Goethe taqdiri azal taʼlimotiga katta eʼtiqod qoʻygan edi. Shuning uchun ham u islom dinining asosiy ruknlaridan biri „Xudoning xohish irodasiga boʻysunish” toʻgʻrisidagi taʼlimotga fikrdosh boʻlgan. Taqdiri azal taʼlimotini tan olish Goethening asarlarida tez – tez uchrab turadi. Shoirning oʻzi islom dinining asosiy taʼlimotiga ixtiyoriy amal qilib yashagan. Buning isboti tariqasida uning hayotidan misollar keltirish mumkin.

Goethening fikricha, musulmonlarning taʼlimotida kamchilik yoʻq, bu shunday buyuk andozadirki, uni har kim oʻziga va boshqalarga tatbiq etmogʻi lozim.

Shoirning „Gʻarbu Sharq devoni” uning islom muhiti va fikrlar olamini oʻrganish bilan koʻp yillar mashgʻul boʻlganidan islomning bevosita kuchli taʼsiri ostida ijod qilganidan dalolat beradi. Shoir „Har qanday taqdir Xudoning irodasi ila sodir boʻladi” degan xulosaga keladi. Goethe islom dini haqidagi kuzatishlarini quyidagicha yakunlaydi: „Allohnings yagonaligi, Uning irodasiga boʻy sunish, paygʻambar orqali xabar yetkazish – bularning barchasi bizning eʼtiqodimiz va tafakkur tarzimizga mos tushadi”.

Yurtimizdagi Goetheshunoslik

Mamlakatimizda oʻziga xos tarjimashunoslik maktabi yaratilgan. Ustoz Gʻaybullas – Salom rahbarligida anchagina ilmiy darajali mutaxassislar tayyorlandi. Oʻzbekistonda katta harflar bilan yozsa arziydigan goetheshunoslik shakllandi. Bu ezgu ishni ustoz shoir Erkin Vohidov ilk bora buyuk „Faust” asarining oʻzbek tiliga toʻla tarjimasini yaratish bilan boshlab

bergan bo'lsa, oradan 22 yil o'tgach Posha Ali Usmon usgub asarni olmon tilidan o'zbekchaga qayta tarjima qildi.

Bugungi kunda namanganlik yosh tarjimon Akmal Ulkanov Goethe asarlarining bilvosita va bevosita tarjimalarining asliyatga muqobilligi borasida nomzodlik dissertatsiyasi ustida izlanish olib bormoqda.

Olima tarjimonimiz Yanglishoy Egamova Goethening „Yosh Verterning iztiroblari“ epistoliar qissasini asliyatdan o'zbekchaga o'girdi. Sadriddin

Salim Buxoriy buyuk Goethening „Devon“ ini asliyatdan o'zbek tiliga o'rinlatib, she'riy yo'sinda qayta yaratishga muvaffaq bo'lgan esa, samarqandlik Salim Jabborov uning „G'arbu Sharq devoni“ sharqona sarchashmalariva uni o'zbek tiliga badiiy tarjima qilish mavzusida nomzodlikdissertatsiyasini himoya qildi.

Qilingan badiiy tarjimalar tahliliga nisbatan ilmiy - falsafiy asarlari tarjimasi borasida yaratilgan tadqiqotlarimiz va tarjimalarimiz bilan hali maqtana olmaymiz. Buyuk Goethening ijodiy merosi to'g'risida yaratilgan mazkur ilmiy – falsafiy risola ana shu sohadagi ishlarga oid yaxshigina tadqiqot yozishga asos bo'lsa ajab emas. Zero, o'zbek tarjimonlarining olmoncha asliyatni to'laqonli qayta yaratish maqsadida qo'llagan so'z tanlash mahoratlari shuni ko'rsatib turibdi. Tarjimonlar so'zni so'z bilan emas, balki ma'noni ma'no bilan ifodalashga intilganlar. Aniqrog'i ular shaklan uzoqlashib, mazmunga yaqin kelishga harakat qiladilar.

Buyk Goethening Sharq madaniyati va falsafasiga bag'ishlangan juda ko'p ishlari o'zining o'zbek tarjimonlarini kutib turibdi. Zero, tarjima tillarni tillarga, dillarni dillarga bog'lovchi oltin ko'prik, vatan adabiyoti va tafakkur olamiga yangi – yangi xazinalarni olib keladigan dastyor ekanini unutmasligimiz kerak.

E'tiqod va adabiyot

Yana bir olim , O'zJTU dotsenti Muso tojiboyev fikrlarini keltirsak.

„Jahon adabiyoti“jurnalining shu yil yanvar sonida e'lon qilingan Katarina Mommsenning „Goethe va Islom“asarini mutolaa qilib ba'zi bir mulohazalarni qog'ozga tushirishga to'g'ri keldi. Zero, ushbu maqola buyuk shoirning ijodiy dunyosini o'rganishda yangi sahifa ochishi turgan gap.

Goethe nemis va umuman jahon adabiyotida yangi sahifa ochgan buyuk adiblardan biri. Uning ijodiy merosiga murojaat qilgan odam har safar shoir qalbining yangi bir manzarasini kashf qiladi. Biz Goethening „G`arbu Sharq” nomli devonida mujassam qilingan asarlarning mundarijasi bilan XX asr o`rtalaridan buyon tanishmiz. Biroq o`tgan asrda Vatanimizda hukm surgan mafkura uning asl mohiyatini o`rganishga yoki uni o`rgangan olimlar ijodi bilan tanishishga imkon bermadi.

Asarning kirish qismida va oxirida muallif ta`kidlagan shoirning e`tiqodiga, islom diniga munosabati uning ijodiy dunyosi mazmun - mohiyatini belgilashda muhim rol o`ynashi aniq. Xususan, Katarina Mommsen yozadi: „Goethening qat`iy ishonchi shundaki, Xudo tabiatda O`zini namoyon etadi”. Axir bu g`oya tasavvufning naqshbandiya ta`limoti asosini tashkil qiladi – ku!

Demak , Goethe Sharq xususan fors va eski o`zbek adabiyoti orqali o`z g`oyaviy – estetik qarashlarida yangi sarhadlarga chiqa olgan. Uning nazarida islom dini, Allohga e`tiqod insonni ruhan poklaydi, uni Yaratganning O`ziga yaqinlashtiradi. Badiiy adabiyot esa shoirning qalb e`tiqodini bashariyatga ma`lum qilish yo`lidagi bir vosita , xolos.

Katarina Mommsen o`z maqolasida badiiy adabiyot biror – bir din yoki uning oqimining targ`ibotchisi bo`lmay, balki diniy bag`rikenglikka, tolerantlikka xizmat qilishi zarurligini alohida ta`kidlaydi. Bu borada Goetheni ham shoir, ham mutafakkir sifatida o`z davrining murakkab inqirozlaridan yuqori turgan alloma sifatida ko`radi. Uning bosshlanga qandaydir sabablarga ko`ra tugallanmay qolgan „Muhammad” nomli tragediyasining yaratilishi va mundarijasiga qayta – qayta murojaat qiladi. Shoirning she`rlaridan keltirgan qator parchalarda Goethening bashariyatga pok niyatda xizmat qilish uchun dunyoga kelganligini isbotlashga intiladi. Muallifning nazarida islom dini, islomga e`tiqod shoirning ijodiy merosiga beqiyos qudrat, mazmun – mohiyat hamda ruhiy parvoz bag`ishlagan. Uning asarlari umr boqiyliigi mana shunda edi deya takidlamochi bo`ladi Katarina Mommsen.

Asarni nemis tilidan o`zbekchaga o`giran olimlar-

M. Umarxo`jayev va I. Jabborov o`ta hayrli ishni amalga oshirdilar. Har bir pok niyatli inson bu maqolada huddi dilidan tiliga chiqara olmay turgan gaplarni topganday bo`ladi.

Tarjima nafaqat o`zbek ziyolilariga, balki keng kitobxonlar ommasiga ham mo`ljallangan.

Yuqoridagi e`tiroflarning mazmunidan kelib chiqib shuni aytish kerakki, ushbu risolaning ilmiy – amaliy ahamiyati juda kattadir. Chunki risolada buyuk nemis

dahosining kuchli qirralari namoyon etilgan. Bu risolani barcha adabiyot ixlosmandlari uchun katta sovg'a bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

X U L O S A

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki ushbu risola tarjimasining ilmiy va amaliy ahamiyati juda kattadir. Barchamizga ma'lumki Olima Katarina Momsenning „Goethe va Islom” risolasi tarjimasi 2012-yilda „Jahon adabiyoti” jurnalida e'lon qilindi. Asarni nemis tilidan o'zbek tiliga o'g'irgan ustozlarimiz M.Umarxo'jayev va I.Jabborov juda katta xayrli ishni amalga oshirdilar desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki bu risola ko'pgina adabiyot ixlosmandlarini befarq qoldirmadi.

Ijodkorning asarlari qomusiy bilimlar xazinasini qamrab olgani kabi, murojaat etgan sohalarining sanab sanog'iga yetish qiyin. Goethedek dahoning nafaqat ilm, balki diniy sohadagi izlanishlari va avlodlarga qoldirgan buyuk ma'naviy merosi faqatgina nemis xalqi uchungina emas, butun dunyo adabiyot ixlosmandlari uchun ham o'lmas merosdir.

Tabiiyki ushbu risolani o'qib ko'pchilikning hayolida Goethe musulmon bo'lganmi degan savol tug'iladi.

Goethe butun insoniyatning yani barcha xalqlarning taraqqiyotiga va do'stona yashashiga qattiq ishongan. U Sharq adabiyoti va madaniyatiga o'zgacha ixlos qo'ygan va o'rgangan. Shu o'rinda uning sharq shoirlarigabergan yuksak ta'rifini eslash o'rinlidir: „Aytishlariga qaraganda, eronliklar o'zlarining besh asr mobaynida o'tgan shoirlaridan faqat yettitasinigina buyuk shoir deb qabul qilganlar. Holbuki ular yaroqsizga chiqargan shoirlar orasida ko'plari mendan yuqori tursa kerak”.

Goethe Sharq shoirlarini ulug'lashi bilan o'z davrida yevro'pada keng tarqalgan irqchilik nazariyasiga va tor millatchilikka qanchalik qarshi ekanligini isbotlagan.

Zero, zamonamizning Navoiysi Erkin Vohidov ta'kidlaganlaridek, „Buyuklarning buyukligi avvalo, zamon tafakkuridan ilgarilab ketishlarida, milliy irqiy, diniy mansubligidan yuksak turganlarida namoyon bo'ladi”.

Darhaqiqat, bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlaridagi insonlar –ular qaysi dinga e'tiqod qilishlari, qaysi tilda so'zlashishlaridan qat'iy nazar bir-birlarining dinlariga, tillariga madaniyatiga hurmat bilan qaraganlarida edi, turli hil jiddiy ziddiyatlarga duch kelinmasdi.

Islom dini mohiyatini tushinmasdan uni turli hil tajovuzkor oqimlar bilan bog'lashga urinishlar bo'lmasdi.

Jadal suratlar bilan rivojlanayotgan zamonamizda jahon xalqlarining o'zaro do'stona hamkorlik va e'tiqoddagi bag'rikenglik dolzarb masaladir. Shu nuqtai nazardan Islomga munosabatni ham Goethedan o'rganish kerak. Islom ma'rifatini anglash uni ezgulik dini deb bilish va ishonishda Goethe jahon xalqlariga o'chmas mayog' bo'lib nur sochib turibdi.

Shoir ijod qilgan davrdan boshlab mana ikki yarim asrdan ko'proq vaqt o'tibdi hamki, uning bebaho merosi barcha adabiyot ixlosmandlarini qiziqtirib kelmoqda, Bu adibning mangulikka daxldorligi me'zoni. Hech shubha yo'qki ushbu merosdan barcha avlodlar samarali foydalanadi. Buyuk adibning boqiyliги ham shundadir. Uning ijod xazinası bitmas tугanmasdir. Uning merosini qadrlash va jahonga yoyish biz kabi bo'lg'usi mutaxassislarning muqaddas burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. I.A.Karimov. „O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida``. Toshkent 2012
- 2.I.A.Karimov. Samarqanddagi so`zlagan nutqida. 2011-yil.
3. I.A.Karimov. „Barkamol avlod orzusi``. Toshkent 2002-yil.
4. „Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch`` Toshkent „Manaviyat`` 2008.
5. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi ,Toshkent „Davlat ilmiy nashryoti”(120-123
6. Jahon adbiyoti jurnalining 2012-yil yanvar soni.
7. M. Umarxo`jayev „Uyg`oq satrlar``. Toshkent „Akademnashr`` 2013.
8. A. Saidov „Goethe-Yurist``. Toshkent „O`zbekiston`` 2010
9. Y.V.Goethe „Xikmatlar xazinasi`` Toshkent „Sharq`` 2008-yil.
10. Херман Хессе Жаҳон адабиёти кутубхонаси Жаҳон адабиёти журнаלי 2003 июн
11. Катерина Момсен Гёте ва Ислон Жаҳон адабиёти 2012/ январ Тошкент
12. Раҳим Каримов. Шарқ маънавияти ва олмон алломалари Жаҳон адабиёти 2010/ июн Тошкент
13. З.Азимова. Талаба ёшларда шакллантирилиши зарур бўлган фазилатлар туркуми ҳақида. Илмий хабарнома 4/2011 Андижон 2012 93-98-бетлар
14. Klaus Zeefaxer. (M.Akbarov tarjimasi) Yohann Volfganhg Gyote T..Yangi asr avlodi, 2012.
15. www.Islom .uz.
16. www.Ziyonet.uz

Андижон Давлат Университети хорижий тиллар факультети Олмон тили ва адабиети йўналиши 4-боскич талабаси Муминова М. нинг5141400- Хорижий тиллар ва адабиети (олмон тили) таълим йўналиши бўйича бакалавр даражасини олиш учун “ **Катарина Момсеннинг Готте ва Ислон рисоласининг М. Умаружаев, И.Жаббор томонидан 2012-йил узбек тилига бевосита килинган таржимаси тахлили ва диний атамаларнингбир тилдан иккинчи тилга таржимаси масаласи** мавзусидаги битирув малакавий ишига илмий раҳбар **хулосаси**

Хорижий тилларни билиш давр талабидир. Хорижий тилни билиш, дуне мамлакатларини, турли сохаларни, инсон ўзи истаган маълумотларни билиш имкониятига кенг йўл очади. Такриз қилинаётган БМИ таржимашунослик масалаларига бағишланган мавзулардан ҳисобланади.

Таржимачилик узок тарихга ега бўлса ҳам, у фан сифатида 70-80 йиларда шакллана бошлади. Тилшуносликда таржима амалиети назарияси унинг маданиятлар тарихидаги рўли бадиий моҳияти каби масалаларни тадқиқ қилиш анча жонланиб кетди.

Таржима ўзининг моҳиятига кўра ижодий иш ҳисобланади. Уни тушиниш учуналуюатта ехтиеж сезамиз. Шу сабабдан ҳам тилшунослик ҳамда адабиётшунослик доим бир-бирини тўлдиради, бойитади ҳамда бири иккинчисини тўлдиради.

Таржима ўз моҳиятига кўра тил билан доим боғлиқ, унга таянадиган ва шу билан бирга уни лингвистик аспектда теширишни кўзда тутадиган фаолиятдир.

БМИ да муаллиф таржима назарияси ва амалиети учун муҳим масалалардан бўлган диний атамалар таржимасини ўрганган.

Диний атамаларнинг таржимаси тадқиқ қилиниши таржимашунослик учун, ҳамда диний адабиётлар таржимасида муҳим аҳамият касб этади.

БМИ ни езишда муаллиф томонидан айрим орфографик хатоларга йўл қўйилган , бу хатоларни тўғриласа бўлади. Лекин бу камчилик ишнинг мазмунига тасир етмайди ва илмий қийматини туширмайди.

Мўминова М. ни Давлат Аттестация Комиссияси хайъати эътиборига химоя учун тавсия қиламан.

БМИ раҳбари

М. Э. УМАРХУЖАЕВ

Эшитилди 4-босқич талабаси Мўминова Мўтабарнинг 5141400 „олмон тили ва адабиети“ таълим йўналиши бўйича бакалавр даражасини олиш учун

„Катарина Момсеннинг Гоегхе ва Ислон рисоласининг ўзбек тилига бевосита қилинган таржимаси таҳлили ва диний атамаларнинг бир тилдан иккинчи тилга таржимаси масаласи“

Андижон давлат университети

Хорижий тиллар факультети

олмон тили ва адабиети кафедрасининг № 10 йиғилиш баенномасидан

К Ў Ч И Р М А

“ „МАЙ 2014йил

Андижон шаҳри

Қатнашдилар Кафедра мудири Исроилова Н,

профессор М.Э.Умархужаев

кафедра аъзолари Доцент Қ. Н.Назаров

кафедра аъзолари катта ўқитувчилар Мирзакаримов М, Жабборов И,

Рахимов С.

КУН ТАРТИБИ

1. Битирув малакавий ишларнинг дастлабки химоясини ўтказиш ҳақида,

Кун тартибидаги масала юзасидан кафедра профессори М.Э. Умархужаев сўз олиб шундай деди 2013-2014 ўқув йилидаги битирув малакавий ишларнинг дастлабки химоя жадвали тасдиқланган. Ана шу жадвал бўйича бугундан бошлаб битирувчи курс талабаларининг дастлабки химояси ўтказилади. Жадвал бўйича бугун беш нафар талабанинг битирув малакавий ишини дастлабки химоясини ўтказамиз. Дастлабки химояда БМИ нинг тайерланиш даражаси, унинг хажми, талабаларнинг мавзу бўйича эгаллаган билимига, ҳамда уни расмийлаштириш жихатларига эътибор қилинади.

“Катарина Момсеннинг Гоегхе ва Ислом рисоласининг ўзбек тилига бевосита қилинган таржимаси тахлили ва диний атамаларнинг бир тилдан иккинчи тилга таржимаси масаласи,, мавзусидаги битирув малакавий иши. Илмий раҳбар профессор М. Э. Умархужаев талаб даражасида расмийлаштирилган.

БМИ хажми талабга жавоб беради. Ишда мақсад ва вазифалар тўлиқ бажарилган. Талаба Битирув малакавий иш бўйича ўз хулосаларига эга.

МУҲОКАМАГА ЧИҚДИ Муҳокамада кафедра профессори М. Э. Умархужаев, доцент Қ. Н. Назаров, катта ўқитувчи Мирзакаримов сўзга чиқиб, битирув малакавий ишнинг амалдаги Низом талабларига тўла жавоб беришни айтиб ўтишди.

Кафедра йиғилиши Қ А Р О Р Қ И Л А Д И

1. Мўминова М. нинг битирув малакавий иши талаб даражасида езилган деб топилсинва очиқ химояга тавсия қилинсин.

2. Мўминова М. нинг **“Катарина Момсеннинг Гоегхе ва Ислом рисоласининг ўзбек тилига бевосита қилинган таржимаси тахлили ва диний атамаларнинг бир тилдан иккинчи тилга таржимаси масаласи,,** мавзусидаги битирув малакавий ишига

Хўжаобод туманидаги 32-мактаб олмон тили ўқитувчиси Тўқаева М. ташқи тақризчи қилиб тайинлансин.

Кафедра мудири

Исроилова Н

Котиба

Мамадалиева Н